

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI**

**M.J. YUNUSOVA, A.B. RAHIMOV**

---

## **DASTURLASH BO'YICHA PRAKTIKUM**

---


*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*



*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining ilmiy-metodik  
kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

O'quv qo'llanma hozirgi kunda kasb-hunar kollejlariда «Dasturlash» fanida rejalashtirilgan Turbo Paskal dasturlash tilida dasturlar tuzishga bag'ishlangan masalalar to'plami — praktikumdan iborat. Uning birinchi qismida Turbo Paskalda dastur tuzish uchun kerakli bilimlar, o'matilgan funksiya va protsedralar ro'yxati, o'zgaruvchilarning xotirada saqlanish sohasi, EHMda Turbo Paskal tilida yozilgan dasturlar bilan ishlash tartibi to'g'risidagi eng zaruriy nazariy yordam ma'lumotnomalari berilgan. Ikkinchisi qismida masalalar shartlari keltirilgan. Ular quyisi va yugori murakkablikdagi masalalarini o'z ichiga olgan ikki bo'limga bo'lingan. Masalalar oddiyidan murakkabiga tomon, kasb-hunar kollejlari Turbo Paskalda dasturlash fani o'quv rejasi mavzulariga mos ravishda o'zgarib boradi. Uchinchi qismida ikkinchi qismda berilgan masalalarning dasturlari keltirilgan.

**Taqribchilar:** A. A. XOLYIGITOV — fizika-matematika fanlari doktori, professor; J. JUMAYEV — Buxoro Davlat universitetining dotsenti; M.M. XUDOYQULOV — Buxoro kommunal xo'jaligi kasb-hunar kollejining direktori.





## KIRISH

Zamonaviy EHMLar (kompyuterlar) o'zining avvalgi avlodlari kabi ishlash chog'ida eng oddiy arifmetik va mantiqiy amallarni bajara oladi, xolos. Mashina murakkab masalani yechishi uchun uning xotirasiga mos dastur kiritilgan bo'lishi kerak. Dastur buyruqlar ketma-ketligidan, ko'rsatmalar — biror oddiy amalni bajarishga oid mashinaga beriladigan ko'rsatmalardan iborat bo'lib, ancha murakkab amalni ifodalaydi.

Mazkur o'quv qo'llanma kasb-hunar kolleji talabalarida, shuningdek, dasturlash bilan qiziquvchilarda dasturlash bo'yicha boshlang'ich ko'nigmalar hosil qilishga bag'ishlangan. EHMLarga dastur-topshiriq yozish uchun istalgan dasturlash tilini tanlab olish mumkin. Kitobda shunday til sifatida deyarli barcha dasturlash tillarida uchraydigan tushuncha va tuzilishlarni o'z ichiga olgan Turbo Paskal tili tanlab olingan. Bu esa kitobxonga keyinchalik boshqa tillar bilan tanishish chog'ida dasturlash borasidagi bilimlarni kengaytirishga imkon beradi.

Dasturlashni o'rganish uchun dasturlash tiliga bag'ishlangan kitobni o'qib chiqish yetarli emas, buning uchun masalalarning dasturlarini yozish kerak. Bu kitobda boshlovchi dasturchi uchun u yecha olishi mumkin bo'lgan masalalar to'plami keltirilgan.

O'quv qo'llanma uch qismdan iborat. I qismda Turbo Paskal dasturlash tili bo'yicha, dasturlashda asqotadigan eng zaruriy tushunchalarni o'z ichiga olgan yordam ma'lumotnomasi keltirilgan. II qismda masalalar shartlari berilgan. Ular quyi va yuqori murakkablikdagi masalalarga ajratilgan. Quyi murakkablikdagi masalalar mavzulariga ko'ra guruhlangan. Yuqori murakkablikdagi masalalar esa mavzusiga emas, murakkabligiga ko'ra birlashtirilgan. Ular orasida har xil mavzularga tegishlilari bo'lib, ular, asosan, iqtidorli talabalarga mo'ljalab berilgan. III qismda masalalar asosiy qismining dastur matnlari keltirilgan, ularni o'rganish, dasturchiga, agar u masalani mustaqil yechgan bo'lsa ham, foyda keltirishi, shubhasiz.

Yuqori murakkablikdagi masalalarning faqat yechish dasturlarigina emas, balki ularni yechish algoritmlari ham bayon etilgan. Ular dasturlarni o'qishga yordam beradigan darajada ishlab chiqilgan. Masalani yechishga o'tishdan oldin talaba tegishli mavzuni o'rganishi uchun darslikni o'qib chiqishi kerak. Agar masalaning yechimi darrov topilmasa, uning yechimini ko'rish va yana bir marta masalani mustaqil yechishga urinish mumkin. Masala shartida bayon etilganidek, dastur ishlasa, demak, masala yechilgan hisoblanadi.



## 1.1. TURBO PASCALDA DASTUR TUZISH UCHUN KERAKLI MA'LUMOTLAR



### 1.1.1. Dastur tasnifi

*Pascal* tilidagi dastur quyidagi bo'limlardan iborat:

- nishona (metka)larni e'lon qilish bo'limi;
- o'zgarmaslarni e'lon qilish bo'limi;
- o'zgaruvchilarni e'lon qilish bo'limi;
- protsedura va funksiyalarini e'lon qilish bo'limi;
- dastur ko'rsatmalari bo'limi.

Umumiy holda dastur tasnifi quyidagi ko'rinishga ega:

*label* {metkalarni e'lon qilish}

*const* {o'zgarmaslarni e'lon qilish}

*type* {turlarni e'lon qilish}

*var* {o'zgaruvchilarni e'lon qilish}

{dasturchining protsedura va funksiyalarini e'lon qilish}

*begin*  
    {asosiy dastur ko'rsatmalari}

*end.*



### 1.1.2. Ma'lumotlarning asosiy turlari

*Pascal* tilining asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- butun sonlar (INTEGER va boshqalar);
- haqiqiy sonlar (REAL va boshqalar);
- belgilari (CHAR);
- satrlar (STRING);
- mantiqiy (BOOLEAN).

Butun va suzuvchi nuqtali sonlar har xil formatlarda berilishi mumkin.

#### Butun sonlar

Format	Qiymatlar sohasi
SHORTING	— 128 — 127
INTEGER	— 32768 — 32767

LONGINT	— 2147483648 — 2147483647
BYTE	0 — 255
WORD	0 — 65535

### *Haqiqiy sonlar*

Format	Qiymatlar sohasi	Qiymati
REAL	2.9E — 39 — 1.7e 38	11—12
SINGLE	1.5E — 45 — 3.4e 38	7 — 8
DOUBLE	5.0E — 324 — 1.7e 108	15 — 16
EXTENDED	3.4E — 4932 — 1.1e 4932	— 19 — 20

### *Satrlar*

Satrlar ikki xil ko'rinishda e'lon qilinishi mumkin:

1-ko'rinish:

Ism: *String*.

255 belidan iborat uzunlikka ega o'zgaruvchi e'lon qilinadi.

2-ko'rinish:

Ism: *String [satr uzunligi]*.

Ko'rsatilgan uzunlikdagi o'zgaruvchi e'lon qilinadi.



### *1.1.3. Massivlar*

Bir o'lchovli massivni e'lon qilish:

Massiv ismi: *array [quyi indeks .. yuqori indeks] of <elementlar turi>*.

Ikki o'lchovli massivni e'lon qilish:

Massiv ismi: *[quyi indeks 1 .. yuqori indeks 1, quyi indeks 2 .. yuqori indeks 2] of <elementlar turi>*.



### *1.1.4. Yozuvlar*

Yozuvlarni ikki xil ko'rinishda e'lon qilish mumkin:

1-ko'rinish:

O'zgaruvchi Yozuv: *record*

Maydon 1 : 1 tur;

Maydon 2 : 2 tur;

\*\*\*

Maydon 3 : 3 tur;

*end.*

2-ko'rinish:



Avval yozuv turi, keyin o'zgaruvchi tur e'lon qilinadi:  
*type*

Tur Yozuvi Ismi: *record*

Maydon 1 : tur 1;

Maydon 2 : tur 2;

....

Maydon *J* : tur *J*;

*end;*

*var.*

O'zgaruvchi Yozuv : Tur Yozuvi Ismi.



### 1.1.5. KO'RSATMALAR (*operatorlar*) *TANLASH ko'rsatmaları*

#### 1) IF *ko'rsatmasi*

1-ko'rinish:

*if* shart

*then*

*begin*

{bu ko'rsatmalar, agar shart to'g'ri bo'lsa,  
bajariladi}

*end*

*else*

*begin*

{bu ko'rsatmalar shart xato bo'lsa, bajariladi}

*end.*

2-ko'rinish:

*IF* shart

*then*

*begin*

{bu ko'rsatmalar shart to'g'ri bo'lganda  
bajariladi}

*end.*



*Izoh :* agar *begin* va *end* o'ttasida faqat bitta ko'rsatma (*operator*) bo'lsa, *begin* va *endni* yozmaslik mumkin.

#### 2) CASE *ko'rsatmasi*

1-ko'rinish:

*Case* ifoda of

*begin*

1 — o'zgarmaslar ro'yxati:  
*begin*  
{1-ko'rsatmalar}  
*end;*  
*begin*  
{2-ko'rsatmalar}  
*end;*  
\*\*\*  
*begin*  
{J-ko'rsatmalar}  
*end;*  
*else*  
*begin*  
{ko'rsatmalar}  
*end;*  
*end.*

Case so'zidan keyin keluvchi ifoda qiymati, tegishli ro'yxat o'zgarmasi bilan mos kelgandagina *begin* va *end* o'rtaсидаги ко'rsatmalar bajariladi, aks holda *else* so'zidan keyin keluvchi *begin* va *end* so'zлари о'rtaсидаги ko'rsatmalar bajariladi.

### SIKLAR 3) FOR ko'rsatmasi

1-ko'rinish (hisobchi qiymati o'sadi):

*for Hisobchi:* = Boshlang'ich Qiymat to So'nggi Qiymat do  
*begin*  
{ko'rsatmalar}  
*end;*

*begin* va *end* o'rtaсидаги ко'rsatmalar [(So'nggi Qiymat – Boshlang'ich Qiymat) + 1] marta bajariladi.

Agar boshlang'ich qiymat so'nggi qiymatdan katta bo'lsa, *begin* va *end* o'rtaсидаги ко'rsatmalar bajarilmaydi.

**! Izoh:** agar *begin* va *end* o'rtaсида faqat bitta ko'rsatma bo'lsa,  
*begin* va *end* so'zларини yozmaslik mumkin.

2-ko'rinish (hisobchi qiymati kamayadi):

*for Hisobchi:* = Boshlang'ich Qiymat *down to* So'nggi Qiymat do  
*begin*  
{ko'rsatmalar}  
*end;*

*begin* va *end* o'rtasidagi ko'rsatmalar [(Boshlang'ich Qiymat — So'nggi Qiymat) + 1] marta bajariladi. Agar boshlang'ich qiymat so'nggi qiymatdan kichik bo'lsa, *begin* va *end* o'rtasidagi ko'rsatmalar bajarilmaydi.

#### 4) REPEAT ko'rsatmasi

*repeat*

*begin*

{ko'rsatmalar}

*end*

*until* Shart;

*begin* va *end* o'rtasidagi ko'rsatmalar (sikl ko'rsatmali) bajariladi, shundan keyin shart ifodaning qiymati tekshiriladi. Agar u *False* ga teng bo'lsa (ya'ni, shart bajarilmasa), sikl ko'rsatmasi yana bir marta bajariladi. Xuddi shunday tarzda shart haqiqat bo'lguncha davom ettiriladi. Shunday qilib, *until* so'zidan keyin siklni tugatish sharti yoziladi.



*Izoh:* agar *begin* va *end* o'rtasida faqat bitta ko'rsatma yozilgan bo'lsa, *begin* va *end* so'zlarini yozmaslik mumkin.

#### 5) WHILE ko'rsatmasi

*while* Shart *do*

*begin*

{shartlar}

*end.*

Shart ifodasidagi qiymat tekshiriladi, agar u *Truega* teng bo'lsa (shart bajarilsa), *begin* va *end* o'rtasidagi ko'rsatmalar (sikl ko'rsatmali) bajariladi. Shundan keyin yana Shart ifodasining qiymati tekshiriladi, shunday tarzda Shart ifodasining qiymati *False* bo'lguncha davom ettiriladi. Shunday qilib, *while* so'zidan keyin sikl ko'rsatmalarining bajarish sharti yoziladi.



*Izoh:* agar *begin* va *end* o'rtasida faqat bitta ko'rsatma yozilgan bo'lsa, *begin* va *end* so'zlarini yozmaslik mumkin.

#### 6) GOTO shartsiz o'tish ko'rsatmasi

*GoTo* metka (nishona)

Oldida, *label* bo'limida e'lton qilingan, metka yozilgan ko'rsatmaga o'tish amalga oshiriladi.

### 1.1.6. Funksiyalarni e'lon qilish

*Function* Funksiya Ismi (*var* Parametr 1: Tur 1;  
*var* Parametr 2: Tur 2;

*var* Parametr J : Tur J) : Tur;

*const*

{o'zgarmaslarni bayon etish}

*var*

{o'zgaruvchilarni bayon etish}

*begin*

{funksiyalar ko'rsatmalari}

Funksiya Ismi: = qiymati;

*end.*

### 1.1.7. Protseduralarni e'lon qilish

*Procedure* Protsedura Ismi (*var* Parametr 1 : Tur 1;

*var* Parametr 2 : Tur 2 . . .

*var* Parametr J : Tur J);

*const*

{o'zgarmaslarni bayon etish}

*var*

{o'zgaruvchilarni bayon etish}

*begin*

{protsedura ko'rsatmalari}

*end.*

## 1.2. TURBO PASCAL REZERV SO'ZLARI, DIREKTIVALARI, STANDART FUNKSIYA VA PROTSEDURALARI

### 1.2.1. Rezerv so'zlar va direktivalar

*Turbo Pascal* tilining rezerv so'zlari

<i>and</i>	<i>file</i>	<i>not</i>	<i>them</i>
<i>array</i>	<i>for</i>	<i>object</i>	<i>to</i>
<i>asm</i>	<i>function</i>	<i>of</i>	<i>type</i>
<i>begin</i>	<i>go to</i>	<i>or</i>	<i>unit</i>
<i>case</i>	<i>if</i>	<i>packed</i>	<i>until</i>
<i>const</i>	<i>implementation</i>	<i>procedure</i>	<i>uses</i>
<i>constructor</i>	<i>in</i>	<i>program</i>	<i>var</i>
<i>destructor</i>	<i>inherited</i>	<i>record</i>	<i>while</i>

<i>div</i>	<i>inline</i>	<i>repeat</i>	<i>with</i>
<i>do</i>	<i>interface</i>	<i>set</i>	<i>xor</i>
<i>downto</i>	<i>label</i>	<i>shl</i>	
<i>else</i>	<i>mod</i>	<i>shr</i>	
<i>end</i>	<i>nil</i>	<i>string</i>	



### 1.2.2. Turbo Paskal direktivalari

<i>absolute</i>	<i>external</i>	<i>forward</i>	<i>near</i>	<i>public</i>
<i>assembler</i>	<i>far</i>	<i>interrupt</i>	<i>private</i>	<i>virtual</i>



### 1.2.3. Funksiya va protseduralar

Matematik	Izoh
<b>ABS (ifoda)</b>	Argumentning mutlaq qiymati (butun yoki haqiqiy tur)
<b>SQR (ifoda)</b>	Argument kvadrati (butun yoki haqiqiy tur)
<b>SQRT (ifoda : real) : real</b>	Argument kvadrat ildiz chiqarish
<b>SIN (ifoda : real) : real</b>	Radianlarda ifodalangan argumentning sinusi
<b>COS (ifoda : real) : real</b>	Radianlarda ifodalangan argumentning kosinusi
<b>ARCTAN (ifoda : real) : real</b>	Radianlarda ifodalangan argumentning arktangensi
<b>EXP (ifoda : real) : real</b>	Argument eksponentasi
<b>LN (ifoda : real) : real</b>	Argumentning natural logarifmi
<b>INT (ifoda : real) : real</b>	Argument butun qismi
<b>TRUNC (ifoda : real) : longint</b>	Argument butun qismi
<b>ROUND (ifoda : real) : longint</b>	Argument qiymatini eng yaqin butun songacha yaxlitlash
<b>STR (ifoda : var Satr: string)</b>	Sonli ifodani satrga aylantirish
<b>Val (Satr : string; var O'zgaruvchi, var Xato kodi : integer)</b>	Butun yoki haqiqiy sonni ifodalovchi satrni songa aylantirish

Satr va belgilarni bilan ishlash uchun	Izohlar
<b>Concat (Satr 1 : string,...; Satr N : string) : string</b>	Bir necha satrni bittaga birlashtirish
<b>Copy (Satr: string, Belgi Raqami : integer) : string</b>	Ichki satrni ajratish
<b>Delete (var Satr : string, Belgi Raqami : integer, Qancha : integer)</b>	Satr qismini olib tashlash
<b>Length (Satr : string) : integer</b>	Satr uzunligi
<b>Pos (Satr : string, Ichki satr : string) : byte</b>	Ichki satrning satrdagi o'mi
<b>Chr (Belgi Kodi : byte) : Char</b>	Ko'rsatilgan koddagi belgi

Funksiya va protseduralar bayonida quyidagicha belgilashlar qabul qilingan:

- funksiya va protseduralar ismi yarim yo'g'on shrift bilan ajratilgan;
- parametrlar kursiv bilan ajratilgan; (parametr sifatida o'z-garmaslar, o'zgaruvchilar yoki tegishli turdag'i ifodalar ishlatalishi mumkin. Agar parametr sifatida asosiy dasturning o'zgaruvchisi bo'lishi shart bo'lsa, uning oldiga, albatta, var so'zi, parametr dan keyin uning turi yozilishi kerak);
- shart bo'lman parametrlar kvadrat qavslarda yozilgan;
- funksiya parametrlari ro'yxatidan keyin (ikki nuqta orqali) funksiya qaytaradigan natija turi ko'rsatiladi.



### 1.2.3.1. Matematik funksiyalar

#### 1. Abs

Sintaksis:

*function Abs (x).*

Butun yoki haqiqiy turdag'i argumentning mutlaq qiymatini qaytaradi.

#### 2. Arctan

Sintaksis:

*function Arctan (x : real) : real.*

Radianlarda ifodalangan argument burchak miqdorining arktangensini hisoblaydi.

#### 3. Cos

Sintaksis:

*function Cos (x : real) : real.*

Radianlarda ifodalangan argument burchak miqdorining kosinusini hisoblaydi.

#### 4. EXP

Sintaksis:

*function EXP (x : real) : real.*

Argument eksponentasiga teng qiymatni hisoblaydi.

#### 5. Ln

Sintaksis:

*function Ln (x : real) : real.*

Argumentning natural logarifmiga teng bo'lgan qiymatni hisoblaydi.

#### 6. Sin

Sintaksis:

*function Sin (x : real) : real.*

Radianlarda ifodalangan argument burchak miqdorining sinusini hisoblaydi.

### 7. *SQR*

Sintaksis:

*function SQR (x).*

Butun yoki haqiqiy turdag'i ifoda argumentining kvadratini hisoblaydi.

### 8. *SQRT*

Sintaksis:

*function SQRT (x : real) : real.*

Argumentdan kvadrat ildiz chiqarilgan qiymatni aniqlaydi.

### 9. *Random*

Sintaksis:

*function Random [(coha : word)].*

Agar Soha parametri ko'rsatilmagan bo'lsa,  $0 \leq x \leq 1$  shartni qanoatlantiruvchi X tasodifiy sonni beradi. Agar Soha parametri ko'rsatilgan bo'lsa, funksiya  $0 \leq x \leq$  Soha shartni qanoatlantiruvchi Word turidagi tasodifiy sonni qabul qiladi.



*Izoh:* Random funksiyasiga birinchi marta murojaat qilishda, Randomize protsedurasini chaqirish yordamida tasodifiy sonlar dastur generatorini initsializatsiya qilish zarur.

### 10. *Randomize*

Sintaksis:

*procedure Randomize.*

Tasodifiy sonlar dastur generatorini initsializatsiyalaydi.



## 1.2.3.2. O'zgartirishning funksiya va protseduralari

### 1. INT

Sintaksis:

*function Int (x : real) : real.*

Haqiqiy turdag'i qiymat sifatida argumentga butun qismni beradi. Shakl almashtirishda argumentning kasr qismi hisobga olinmaydi, ya'ni funksiya yaxlitlamaydi.

### 2. Round

Sintaksis:

*function Round (x : real) : real.*

Argumentni eng yaqin butun songa yaxlitlaydi.

### *3. Str*

Sintaksis:

*procedure Str (x [:2 Belgilar Jami [:Kasr Qism]]; var Satr : string).*

Sonli ifodani uning satrli bayoniga aylantiradi. *Belgilar Jami* va *Kasr Qism* — butun turdag'i belgilarning umumiy sonini va son tasviridagi kasr qism belgilari miqdorini beruvchi, shart bo'lmagan, ifodadir.

### *4. Trunc*

Sintaksis:

*function Trunc (x : real) : longint.*

Argumentning butun qismini butun turdag'i qiymat sifatida beradi. Shabl almashirishda argumentning kasr qismi hisobga olinmaydi, ya'ni funksiya yaxlitlanmaydi.

### *5. Val*

Sintaksis:

*Procedure Val (Satr : string; var O'zgaruvchi; var Xato : integer).*

Butun yoki haqiqiy sonni ifodalovchi satrni songa aylantiradi. hosil bo'lgan qiymat protsedurani chaqirishda ko'rsatilgan o'zgaruvchi tomonidan o'zlashtiriladi.

«Xato» o'zgaruvchi, agar shabl almashirish bajarilmasa, uning amalga oshmasligiga sabab bo'lgan satr belgisi raqamini o'zlashtiradi. Agar shabl almashirish muvaffaqiyat bilan bajarilsa, «Xato»ning qiymati nolga teng.

## *1.2.3.3. Satr va belgilarni ishlash uchun funksiyalar va protseduralar*

### *1. Chr*

Sintaksis:

*function Chr (Belgi Kodi : byte) : char.*

Ko'rsatilgan kod bilan belgini qabul qiladi.

### *2. Concat*

Sintaksis:

*function Concat (S1 [, S2, ..., SN] : string) : string.*

Funksiyani chaqirishda ko'rsatilgan qatorlar birlashmasi bo'lgan satrni qabul qiladi.

### *3. Copy*

Sintaksis:

*function Copy (s : string; n : integer; l : integer) : string.*

S satr qismi ichki satrni qabul qiladi. Ichki satr *n* —raqamli belgidan boshlanadi va *l* belgidan iborat bo'ladi.

### *4. Delete*

Sintaksis:

*procedure Delete (var S: string; Belgi Raqami: integer; Qancha: integer).*

*S* satrdan *n* raqami bilan boshlanuvchi va *l* belgidan iborat bo‘lgan qismni o‘chiradi.

5. *Length*

Sintaksis:

*function Length (satr : string) : integer.*

Argument — satr belgilari miqdoriga teng qiymatni qaytaradi.

6. *POS*

Sintaksis:

*function POS (satr : string; Ichki satr : string) : byte.*

Satrda ichki satr o‘rnini (belgi raqamini) qaytaradi.

7. Satr va belgilar ishlatalgan dasturlarda ko‘pincha grafik rejimning *DetectGraph* protsedurasi ishlataladi.

*DetectGraph*

Sintaksis:

*DetectGraph (var Drayver, Rejim : integer).*

Grafik adapterni tekshiradi va qaysi grafik drayveri va rejim ishlatalayotganini aniqlaydi.

#### 1.2.3.4. *Fayllar bilan ishlash uchun protsedura va funksiyalar*

1. *Append*

Sintaksis:

*procedure Append (var F : text).*

Fayl oxiriga qo‘sish rejimida faylli o‘zgaruvchi *F* bilan bog‘liq mavjud faylni ochadi. Mavjud bo‘lmagan faylni ochishga urinishda dasturni bajarish vaqtি xatosi paydo bo‘ladi.

2. *Assing*

Sintaksis:

*procedure Assing (var F ; Fayl Ismi : string).*

*F* fayl o‘zgaruvchini aniq fayl bilan bog‘laydi.

3. *Close*

Sintaksis:

*procedure Close (var F).*

*F* fayl o‘zgaruvchi bilan bog‘liq bo‘lgan faylni yopadi.

4. *EOF*

Sintaksis:

*function EOF (var F) : boolean.*

*F* fayl o'zgaruvchi bilan bog'liq fayldan o'qishda faylning oxiriga (*end of file*) yetganligini tekshiradi. Agar o'quv ko'rsatkichi fayl oxiriga yetgan bo'lsa, funksiya *EOF* — *TRUE*, aks holda — *FALSE* qiyamatni oladi.

### 5. *Erasre*

Sintaksis:

*procedure Erasre (var F).*

Ismi *F* fayl o'zgaruvchi bilan bog'liq faylni yo'qotadi.

### 6. *IOResult*

Sintaksis:

*function IOResult : integer.*

Oxirgi bajarilgan faylni kiritish-chiqarish (shu jumladan faylni ochish va yopish) ishi natijasi kodini qabul qiladi. Agar kiritish-chiqarish ishi muvaffaqiyatli bajarilgan bo'lsa, funksiya nolni qaytaradi.

**!** *Izoh*: dastur *IOResult* funksiyasini ishlata olishi uchun kiritish-chiqarish natijasida xato paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalar oldida {I —}, ko'rsatmalardan keyin esa {I +} direktivalarni joylashtirish kerak.

### 7. *Reset*

Sintaksis:

*procedure Reset (var F [: file; Recsize : word]).*

Mavjud faylni ochadi. Fayl turi ixтиiyoriy bo'lishi mumkin. Agar fayl elementlari standart turlarning birortasiga tegishli bo'lmasa, *Recsize* parametr yozuv uzunligini (baytlarda) beradi. Mavjud bo'limgan faylni ochishga urinishda bajarish vaqtin xatosi paydo bo'ladi.

### 8. *Rewrite*

Sintaksis:

*procedure Rewrite (var F [: file; Recsize : word]).*

Ismi *F* fayl o'zgaruvchi bilan bog'liq bo'lgan faylni yaratadi va ochadi. Agar shunday ismli fayl bor bo'lsa, *Rewrite* protsedura uni yo'qotadi va yangisini yaratadi.



### 1.2.3.5. *Boshqa funksiyalar*

#### 1. *ClrEol*

Sintaksis:

*procedure ClrEol.*

Joriy (kursor turgan) satrni, kursor turgan xonadan satr oxiriga-cha *TextBackGrand* protsedurasi bergan rang bilan bo'yab, tozalaydi.



## 2. *ClrScr*

Sintaksis:

*procedure ClrScr.*

Ekranning joriy oynasini (*Windows* protsedurasi o'rnatgan)

*TextBackGrand* protsedurasi bergan rang bilan bo'yab, tozalaydi.

## 3. *Delay*

Sintaksis:

*procedure Delay (To'xtatish : word).*

Dastur bajarilishini millisekundlarga to'xtatishni ta'minlaydi.

## 4. *Dispose*

Sintaksis:

*procedure Dispose (var P).*

Dinamik o'zgaruvchi egallagan *P* ko'rsatayotgan xotirani bo'shatadi.

## 5. *Eoln*

Sintaksis:

*function Eoln [/ (var F : text) ] : boolean.*

Agar *Eoln* funksiyaga murojaat qilinganda, parametr ko'rsatilmagan bo'lsa, funksiya klaviaturaning buferidan o'qilayotgan navbatdagi belgi «yangi satr» belgisi bo'lish-bo'lmasligini tekshiradi. Agar bo'lsa, funksiya *TRUE*, aks holda *FALSE* qiymatlarini qabul qiladi. Agar parametr ko'rsatilgan bo'lsa, funksiya xuddi shunday tartibda, funksiyani chaqirishda ko'rsatilgan, fayl o'zgaruvchi bilan bog'liq bo'lgan matnli faylning navbatdagi belgisini tekshiradi.

## 6. *GotoXY*

Sintaksis:

*procedure GotoXY (x, y : byte).*

(*x, y*) koordinataga ega bo'lgan ekranning nuqtasiga kursorni ko'chiradi.

## 7. *Halt*

Sintaksis:

*procedure Halt [/ (Tugatish kodi : word) ].*

Dastur bajarilishini tugatadi va boshqarishni operatsion tizimga uzatadi.

## 8. *New*

Sintaksis:

*procedure New (var P).*

Dinamik o'zgaruvchi uchun xotira ajratadi va *P* ko'rsatkich uchun ajratilgan soha adresini beradi.

## 9. *ParamCount*

Sintaksis:

*function ParamCount : word.*

Buyruq satriga parametrlar miqdorini beradi.

#### 10. *ParamStr*

Sintaksis:

*function ParamStr (N : word) : string.*

Funksiyaga murojaat qilganda raqami ko'rsatilgan buyruq satri parametrini qabul qiladi. Bajarilayotgan dastur fayliga yo'l va uning ismi (masalan, s: *\tp\exe\tpu\myprog.exe*) *ParamStr (0)*ning qiymati bo'ladi.

#### 11. *ReadKey*

Sintaksis:

*function ReadKey : char.*

Bosilgan klavishga mos belgini beradi. *Ord* funksiyasidan foydalanib, bosilgan klavish kodini hosil qilish mumkin. Agar xizmat klavishi bosilgan bo'lsa (masalan, kursorni siljитish klavishi), *ReadKey* funksiya *O* kodlik belgini beradi. Bu holda xizmat klavishini o'xshatish uchun yana bir marta *ReadKey* funksiyani chaqirish kerak, bu holda u xizmat kodi klavishini beradi. Quyida tez-tez ishlataladigan ba'zi bir klavishlarning kodlari keltirilgan:

Klavish	Kod
<Esc>	27
<Backspace>	8
<Enter>	13
<↑>	0; 72
<↓>	0; 80
<↔>	0; 75
<→>	0; 77

#### 12. *TextBackGround*

Sintaksis:

*procedure TextBackGround (rang : byte).*

*Write* va *writeln* ko'rsatmalari bilan chiqariladigan axborotlar tag rangini beradi. Rang parametri sifatida quyida nomlangan o'zgarmaslarning birontasi ishlatalishi mumkin:

O'zgarmas	Rang	Rang raqami
<i>Black</i>	Qora	0
<i>Blue</i>	Ko'k	1
<i>Green</i>	Yashil	2
<i>Cyan</i>	Firuza	3
<i>Red</i>	Qizil	4
<i>Magenta</i>	Binafsha	5
<i>Brown</i>	Jigarrang	6
<i>Light Gray</i>	Och kulrang	7

### 13. TextColor

Sintaksis:

*procedure TextColor (rang : byte).*

Write va writeln ko'rsatmalari bilan chiqariladigan axborot belgilaringin rangini o'rnatadi. Rang parametri sifatida quyida keltirilgan nomlangan o'zgarmaslarning biridan foydalanish mumkin:

O'zgarmas	Rang	Rang raqami
<i>Black</i>	Qora	0
<i>Blue</i>	Ko'k	1
<i>Green</i>	Yashil	2
<i>Cyan</i>	Firuza	3
<i>Red</i>	Qizil	4
<i>Magenta</i>	Binafscha	5
<i>Brown</i>	Jigarrang	6
<i>Light Gray</i>	Och kulrang	7
<i>Dark Gray</i>	To'q kulrang	8
<i>Light Blue</i>	Havorang	9
<i>Light Green</i>	Och yashil	10
<i>Light Cyan</i>	Och firuza	11
<i>Light Red</i>	Och qizil (alvonrang)	12
<i>Light Magenta</i>	Och binafscha	13
<i>Yellow</i>	Sariq	14
<i>White</i>	Oq yarqiroq	15

### 14. Where X

Sintaksis:

*function Where X : byte.*

Window protsedurasi bilan berilgan kursorning joriy oynadagi X koordinatasini ochadi.

### 15. Where Y

Sintaksis:

*function Where Y : byte.*

Window protsedurasi bilan berilgan kursorning joriy oynadagi X koordinatasini ochadi.

### 16. Window

Sintaksis:

*procedure Window (x1, y1, x2, y2 : byte).*

Ekran sohasi — oynani aniqlaydi. x1, y1 koordinatalar oynanining yuqori chap burchagi koordinatalarini, x2, y2 esa oynanining o'ng past burchagi koordinatalarini beradi.

### 1.3. O'ZGARUVCHILARNING XOTIRADA SAQLANISHI

Kompyuter xotirasida sonlar bitlar ko'rinishida saqlanadi. Har bir bit bitta ikkilik raqamiga teng qiymat (0 yoki 1) qabul qiladi. Sakkiz bit bir baytga teng. Sakkizta ikkilik raqam yordamida yoziladigan maksimal son —1111111, bu 255 soniga mos, eng kichik son esa nol. Shuning uchun bayt 0 dan 255 gacha qiymat qabul qilishi mumkin.

O'zgaruvchilar xotirada saqlanadi. Har xil turdag'i o'zgaruvchilar har xil qiymatlar qabul qilishi mumkinligi uchun ularni saqlashga xotiraning har xil sig'imi kerak. O'zgaruvchi uchun xotira baytlarga ajratiladi (butun son). Masalan, char turidagi o'zgaruvchi qiymat 256 ta belgidan ixtiyoriy bittasi bo'lishi mumkin. Shuning uchun bunday turdag'i o'zgaruvchini saqlash uchun bitta bayt yetarlik. *Integer* butun turdag'i o'zgaruvchining qiymati bo'lib — 32768 dan 32767 (65535 ta qiymat) gacha son bo'lishi mumkin. Bu turdag'i o'zgaruvchini saqlash uchun 2 bayt kerak. Demak, tur qiymati sohasi qancha katta bo'lsa, shu turdag'i o'zgaruvchini saqlash uchun shuncha ko'p bayt kerak:

O'zgaruvchi tur	Egallaydigan xotira, bayt	Qiymatlar sohasi
CHAR	1	Ixtiyoriy belgi
STRING	256	256 tagacha belgiga ega satr
STRING [N]	$1 \times n$	$n$ tagacha belgiga ega satr
BYTE	1	0—255
WORD	2	0—65535
INTEGER	2	-32768—32767
LONGINT	4	-2147483648—2147483647
REAL	6	2.9E - 39 — 1.7e 38
SINGLE	4	1.5E - 45 — 3.4e 38
DOUBLE	8	5.0E - 324 — 1.7e 308
EXTENDED	8	3.4E - 4932 — 1.1e 4932

Dasturda bir xil qiymat uchun har xil turdag'i o'zgaruvchilardan foydalanish mumkin, bunda ular xotiraning har xil hajmini egalaydi. Masalan, agar dasturda *Day* (oy kuni) o'zgaruvchisi ishlatalayotgan bo'lsa, uning uchun *byte*, *integer* yoki *longint* turlarini berish mumkin. Birinchi holda xotiraning bir, ikkinchisida — ikki, uchinchisida — to'rt bayti band bo'ladi. Lekin faqat bitta baytdan to'liq foydalaniladi, qolganlari esa faqat band qilinadi. Shuning uchun har bir o'zgaruvchi uchun eng to'g'ri keladigan turni tanlash kerak. Satr o'zgaruvchilari va massivlarni bayon etishga alohida

e'tibor berish kerak. Satr o'zgaruvchilariga joy ajratilayotganda, agar satrning chegaraviy uzunligi berilmagan bo'lsa, o'zgaruvchiga 256 bayt ajratiladi. Masalan, o'zgaruvchini e'lon qilishda *name : string* deb emas, balki *name : string* [30] deb yozish kerak.

Dasturning har bir massivi uchun joy ajratiladi, joy hajmi massiv elementlari turi va ularning miqdori bilan aniqlanadi. Masalan, ikki o'lchamli (masalan, 20x20) massivning haqiqiy sonlarini saqlash uchun xotiraning 3 kilobaytdan ko'proq sig'imi kerak ( $20 \times 20 \times 8 = 3200$ ).

Kompyuter xotirasi hajmi chegarasiz bo'lib ko'ringani bilan, u samarasiz ishlatsila, yetishmay qolishi mumkin.

#### **1.4. EHMDA PASKAL TILIDA YOZILGAN DASTURLAR BILAN ISHLASH**

Bosh menyuga kirish:

*F10* klavishi bosiladi.

Menyudan yoki muloqot oynasidan hech bir ish bajarmasdan chiqish:

*ESC* klavishi bosiladi.

Bosh menyuning ixtiyoriy ichki menyusini tez ochish: *Alt* klavishi bosiladi va ushlab turiladi, u qo'yib yuborilmasdan menu nomlanishining birinchi harfi bosiladi. Masalan, *Alt + F* — ekranida *File* menyusini ochadi.

*Menyu buyruqlarini tez chiqarish.* Ochilgan menyu buyruqlarini zudlik bilan chiqarish uchun buyruq nomidagi rangi bilan ajralib turgan harf yozilgan klavishni bosish kerak. Masalan, ochilgan *File* menyusida «A» klavishi bosilsa, *Save AS...* buyrug'i chiqariladi. Bu ish tezkor klavishlar yordamida ham bajarilishi mumkin:

*Alt + FA*

Ishchi (joriy) katalogni o'zgartirish.

1. *File* menyusi ochiladi.

2. *Change dir...* buyrug'i chiqariladi. Muloqot oyna ochiladi, uning *Directory name* maydonida joriy katalog nomi, *Directory tree* maydonida esa joriy diskning kataloglar shajarasini ko'r-satilgan bo'ladi.

3. *Directory name* maydoniga yangi joriy katalog nomi yoziladi, *TAB* klavishi yozilgan kataloglar shajarasida uning ismi ko'rsatiladi.

4. Tanlangan katalog *Enter* klavishini bosish bilan mustah-kamlanadi.

5. TAB klavishini bosish bilan kursor *OK* tugmaga o'matiladi va <Enter> bosiladi.

*Yangi dasturni kiritish uchun oyna ochish:*

1. *File* menyusi ochiladi.
2. *New* buyrug'i chaqiriladi.

*Diskka yangi dasturni yozish:*

1. *File* menyusi ochiladi.

2. *Save as...* buyrug'i chiqariladi. *Save FileAs* muloqot oynasi ochiladi, bu yerda *Save FileAs* maydoniga yangi dastur uchun fayl nomi biriktiladi. Shuningdek, bu oynada yangi dasturni mayjud fayllardan birining nomi bilan atash uchun ham imkoniyat bo'ladi. Buning uchun TAB klavishini bosish (kursor *File* maydoniga o'tadi) va mavjud ro'yxatdan fayl ismini tanlash kerak.

3. *Enter* klavishi bosiladi. Mavjud ism bilan yozilayotganda tegishli ogohlantirish berilgan va faylni qayta yozish yoki uni tanlangan ism bilan yozishdan voz kechish imkoniyati bo'ladi.

*Faylni tahrir qilish uchun ochish:*

1. *File* menyusi ochiladi.

2. *Open...* buyrug'i chiqariladi (*F3* klavish ham bu ishni bajaradi).

3. Ekranda *Open a File* oynasi paydo bo'ladi. *Name* maydoni *Files* maydoniga chiqariladigan fayllarni tanlash uchun shablonga ega bo'ladi. Sukut holatida *\*.pas* shabloni tavsiya etiladi. Tegishli shablondagi fayllar ro'yxati *Files* maydoniga, diskning joriy kata-logida mavjud bo'lgan fayllardan tanlab chiqariladi.

4. Bu bosqichda quyidagi ishlar bajariladi:

4a. TAB klavishi bosiladi, kursor *File* maydoniga o'tadi, mavjud ro'yxatdan fayl nomi tanlanadi.

4b. *Name* maydonidagi shablon o'zgartiriladi, shunday keyin 4a bosqichdagi ish bajariladi.

4d. Ochiladigan faylning nomi bevosita *Name* maydoniga kiritiladi.

5. *Enter* klavishi bosiladi. 4a va 4b hollarda klavish ikki marta bosiladi.

*Faol oynadagi dasturni eski nom bilan saqlash:*

I usul. *F2* klavishi bosiladi.

II usul. 1. *File* menyusi ochiladi.

2. *Save* buyrug'i chaqiriladi.

*Faoł oynadagi dasturni bajarishga yuborish:*

*Ctrl + F9* klavishlari bosiladi.

*Natijani chiqarish uchun ekranni tozalash:*

Ekranni tozalash uchun dasturda quyidagilarni bajarish zarur:

- *uses* taklifida *Crt* standart moduli kiritiladi (*Uses Crt*);
- dasturning operator bloki boshida *ClrScr* protsedurasi chiqiriladi.

Misol:

```
Program PR;  
Uses Crt;  
var A: integer;  
begin  
    ClrScr;  
    Readln (A);  
    Writeln ('A = ', A);  
end.
```

*Yangi dasturni yaratish va xatolarini tuzatishda bajariladigan ishlarning namunaviy rejasi*

1. Yangi dastur kiritish uchun tahrirlashning yangi oynasi ochiladi.
2. Yangi dastur matni teriladi.
3. Dastur matni diskka yoziladi (yangi dastur matni ishga tushirilguniga qadar diskka yozilishi zarur).
4. Dastur bajarishga yuboriladi (*Ctrl + F9*).
5. Agar dasturda sintaksis xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, ekranda tegishli axborot paydo bo'lib, kursov esa xato joyni ko'rsatadi. Bunday paytda tahrir buyruqlari yordamida tuzatilishi va yana dastur bajarishga yuborilishi kerak.
6. Dastur natijalarini ko'rish (*Alt + F5*).
7. Agar xato natijalar olingan bo'lsa, yo'l qo'yilgan algoritmik xatolarni tuzatish va dasturni yana bajarishga yuborish kerak.
8. 4—7-bosqichlar to'g'ri yechimlar olinguncha takrorlanadi.
9. Tuzatilgan dastur diskda saqlanadi (*F2*).

*Pascal tilidagi dastur bilan ishlashda tezkor klavishlar.*

*Umumiy qo'llanishdagi klavishlar:*

*F10* — bosh menyuga kirish.

*ESC* — muloqot yoki menu oynasini yopish.

*Alt + X* — Paskal dasturi bilan ishlash oynasidan chiqish.

*Ctrl + Break* — ishga tushirilgan dasturni to'xtatib, boshlang'ich oynaga qaytish (ishga tushgan dastur qotib qolganda yoki yopiq siklga tushib qolninganda bu klavishlar bosiladi).

*Print Screen* — ekran nusxasini printerda chop etish.

*Pause* — ictiyoriy klavish bosilguncha o'zgarayotgan tasvirni ekranda to'xtatib turish.

### *Yordam tizimi bilan ishlash klavishlari:*

*F1* — yordam tizimining shu daqiqada faol bo'lgan oyna yoki kursor ko'rsatayotgan menyu buyrug'i to'g'risidagi axborotini yoritadi.

*F1* — (ikki marta) — yordam tizimidan foydalanish to'g'risidagi ko'rsatmani ekranga chiqaradi.

*Ctrl + F1* — faol oynadagi kursor turgan ibora haqidagi axborotni ekranga chiqaradi.

*Alt + F1* — *Help* oynasining oldingi oynasiga qaytish. Bu buyruqni ko'p marta bajarilishi teskari tartibda *Helpning* 20 tagacha oxirgi oynalarini chiqaradi.

*Shift + F1* — yordam tizimida mavjud bo'lgan iboralarining alfavit tartibidagi ro'yxatiga ega bo'lgan *Index* oynasini ekranga chiqaradi.

### *Fayllarni ochish, saqlash va tahrir oynalari bilan ishlash klavishlari:*

*F2* — tahrirlashning faol oynasidagi dasturni diskdag'i faylga eski nom bilan saqlash.

*F3* — tahrirlash va ishga tushirish uchun zarur bo'lgan faylni diskdan tanlash uchun *Open a File* muloqot oynasini chiqarish.

*Alt + F3* — tahrirlashning faol oynasini yopish.

*F6* — bir necha marta *F6* klavishning ketma-ket bosilishi ochilgan oynalar faolligi almashinuvining takrorlanishini keltirib chiqaradi.

*Shift + F6* — *F6* klavishiga o'xshab ishlaydi, lekin oynalarni teskari ketma-ketlikda almashtirib boradi.

*Alt + O* — Paskal ishga tushirilgan lahzadan ochilgan hamma oynalar ko'rsatilgan *Window List* muloqot oynasini ochadi.

*F5* — faol oynani to'la ekran o'lchamida ochadi, agar oyna shu o'lchamda bo'lsa, uning boshlang'ich holatini tiklaydi.

*Ctrl + F5* — faol oyna o'lchamini va (yoki) uning ekrandagi o'mini o'zgartirish. Oynaning ekran bo'yicha siljishi yo'nalish klavishlari yordamida, o'lchamni o'zgartirish esa *Shift* va yo'nalish klavishlarining bir vaqtda bosilishi bilan bajariladi.

### *Dastur matni bo‘lagi bilan ishlash klavishlari:*

*Shift + «yo‘nalish klavishlari»* — dastur bo‘lagini ajratadi.

*Shift + Del* — dasturning ajratilgan bo‘lagini o‘chiradi va *Clipboard* buferiga joylashtiradi.

*Ctrl + Ins* — dasturning ajratilgan bo‘lagini *Clipboard* buferiga nusxalaydi.

*Shift + Ins* — *Clipboard*-dagi ajratilgan bo‘lakni oynadagi kursor joylashgan xonaga qo‘yadi.

*Ctrl + Del* — ajratilgan bo‘lakni *Clipboard* buferiga uzatmasdan o‘chiradi.

*Alt + BackSpace* — tahrirlashdagi oxirgi ishni bekor qiladi.

### *Kompilyatsiya va bajarishga yuborish klavishlari:*

*Alt + F9* — tahrirlashning faol oynasidagi faylni kompilyatsiya (tarjima) qilish.

*F9* — .exe faylini yaratish bilan ko‘p modulli dasturni shartli kompilyatsiya qilish. Agar oxirgi kompilyatsiya vaqtidan ba‘zi bir modullarga o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lsa, faqat o‘zgartirilgan va ularga bog‘liq bo‘lgan modullargina qayta kompilyatsiya qilinadi. Oddiy dasturlar uchun shunga teng kuchli *Alt + F9* bosiladi.

*Ctrl + F9* — tahrirlashning faol oynasidagi dasturni bajarishga yuborish.

### *Dasturlarni tuzatish klavishlari:*

*Alt + F5* — dastur bajarilishi natijalarini ko‘rish.

*F8* — dasturning qadam-baqadam bajarilishi. Protsedura va funksiyalarni chaqirish bitta operator (bitta qadam) kabi bajariladi.

*F7* — dasturni qadam-baqadam bajarish. Protsedura yoki funksiyalarni chaqirishda uning matniga kirish va operatorlarni qadam-baqadam bajarish sodir bo‘ladi.

*F4* — dastur qadam-baqadam bajarilishining joriy satridan kursor joylashgan satrgacha dastur qismining bajarilishi.

*Ctrl + F2* — dasturni tahrir qilish ishini yakunlaydi va uni xotiradan bo‘shatadi.

*Ctrl + F3* — *Call Stack* oynasini ochadi. Bu oynada shu daqiqada bajarilayotgan protseduragacha chiqarilgan dastur protseduralari ro‘yxati ketma-ketligi ko‘rsatiladi.

*Ctrl + F4* — *Evaluate and modify* oynasini ochadi. Bu oynada qiymati aniqlanishi talab etilgan ifodani ko‘rsatish, dastur o‘zgaruvchilari qiymatlarini va berilganlar elementlarini qarab chiqish hamda ularni o‘zgartirish kerak.

*Ctrl + F7* — *Add Watch* muloqot oynani ochadi. Bu oynaga dasturchi tuzatishni bajarish vaqtida, qiymatlari qiziqtiradigan ifoda yoki o‘zgaruvchi nomini yozishi mumkin.



### **2.1. QUYI MURAKKABLIKDAGI MASALALAR**



#### *2.1.1. O'zgaruvchilarni e'lon qilish*

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quyidagilarni esda tutish kerak:

- dasturning har bir o'zgaruvchisi e'lon qilinishi kerak;
- o'zgaruvchilar *var* so'zi bilan boshlanadigan bo'limda e'lon qilinadi;
- o'zgaruvchilarni e'lon qilish ko'rsatmasi quyidagi ko'rinishga ega:

**O'zgaruvchi Ismi:** Turi;

- o'zgaruvchi nomi sifatida lotin alifbosining harflari va raqam (birinchi belgi harf bo'lishi kerak) ishlataladi;
- *Turbo Pascal* tilining asosiy sonli turlari quyidagilar: *integer* (butun), *real* (haqiqiy kasr);
- o'zgaruvchi e'lon qilingan ko'rsatmadan keyin o'zgaruvchining qo'llanilishini ko'rsatish tavsiya qilinadi.



### **MASALALAR**

1.  $y=x^2$  funksiyaning qiymatini hisoblash uchun zarur o'zgaruvchilarni e'lon qiling.
2. Funt o'chovidagi og'irlikni kilogrammga aylantirish uchun zaruriy o'zgaruvchilarni e'lon qiling (bir funt = 409,5 g).
3. Parallelepiped hajmini hisoblash uchun zaruriy o'zgaruvchilarni e'lon qiling.
4. Doira yuzasini hisoblash uchun zaruriy o'zgaruvchilarni e'lon qiling ( $S=\pi \cdot r^2$ ).
5. Silindr sirt yuzasi va hajmini hisoblash uchun zaruriy o'zgaruvchilarni e'lon qiling ( $v=2 \cdot \pi r(h+r)$ ;  $v=\pi \cdot R^2 \cdot h$ ).
6. Bir necha daftarlar, qalamlar va chizg'ichdan iborat xaridning qiymatini hisoblash uchun zaruriy o'zgaruvchilarni e'lon qiling.



### 2.1.2. O'zlashtirish ko'rsatmasi\*

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quyidagilarni esda tutish kerak:

- o'zlashtirish ko'rsatmasi o'zgaruvchilar qiymatini o'zgartirish, shuningdek, formula bo'yicha hisoblashda ishlataladi;
- o'zlashtirish ko'rsatmasining o'ng tomonidagi ifoda turi chap tomondagi o'zgaruvchi turiga mos kelishi kerak (aks holda kompilyator — *Type Miss match* — turlar mos kelmaydi, degan axborot chiqaradi).



### MASALALAR

7. O'zgaruvchiga 1,5 qiymatni beruvchi ko'rsatmani yozing.
8. *Summa* o'zgaruvchisiga nol qiymat beruvchi ko'rsatmani yozing.
9. *n* o'zgaruvchi qiymatini 1 ga oshiruvchi ko'rsatmani yozing.
10. *counter* o'zgaruvchi qiymatini 2 ga kamaytiruvchi ko'rsatmani yozing.
11.  $X_1$  va  $X_2$  o'zgaruvchilar qiymatining o'rta arifmetigini topish ko'rsatmasini yozing.
12.  $y = -2,7x^3 + 0,23x^2 - 14$  funksiya qiymatini hisoblash ko'rsatmasini yozing.
13. Masofani kilometrdan verstlarga o'tkazish formulasi bo'yicha hisoblash ko'rsatmasini yozing (bir verst = 1066,8 m).
14. To'rburchak yuzini hisoblash ko'rsatmasini yozing.
15. Uchburchak yuzini hisoblash ko'rsatmasini yozing.
16. Shar sirt yuzasi va hajmini hisoblash ko'rsatmasini yozing:

$$(v = \frac{3}{4} \pi R^3; \quad S = 4\pi R^2).$$

17. G'ovak silindr hajmini hisoblash ko'rsatmasini yozing:

$$(v = \pi \cdot R / R_1^2 - R_2^2).$$

18. Konus hajmini hisoblash ko'rsatmasini yozing:

$$(S = \frac{1}{3} \cdot \pi \cdot R^2 \cdot h).$$



### 2.1.3. Chiqarish ko'rsatmasi

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quyidagilarni eslang:

\* Ba'zi bir adabiyotlarda «ko'rsatma» o'mida «operator» so'zi ishlataladi.

- *write* va *writeln* ko'rsatmalari monitor ekraniga axborotlar va o'zgaruvchi qiymatlarini chiqarish uchun ishlataladi;
- bitta *write* (*writeln*) ko'rsatmasi ekranga bir necha o'zgaruvchi qiymatlarini va (yoki) bir necha axborotlarni chiqarishi mumkin;
- parametrsiz *writeln* ko'rsatmasi kursorni ekranning navbatdagi satr boshiga o'tkazadi.



## *MASALALAR*

19. Ekranga ism va familiyani chiqaruvchi dasturni yozing.
20. Ekranga quyidagi to'rtlikni chiqaruvchi dasturni yozing:

Inson aqli — galaktika yo'lida chiroq,  
 Balki kosmos mozorida ko'milar tanim?  
 Yo'q-yo'q, inson darichasin ochgan u chog'da,  
 Tarixlarga — u, o'ilmas, deb yozdi, Vatanim.

*Toshpo'lat Hamid*

21. Kasr qismida uchta raqam bo'lgan o'zgaruvchi qiymatini ekranga chiqarish ko'rsatmasini yozing.

22. Quyidagi ko'rsatmalar nima qilishini aniqlang:

*write (a);*  
*write ('a').*

23. *a*, *b* va *c* kasr o'zgaruvchi qiymatlarini bir satrga chiqaruvchi ko'rsatmani yozing. Har bir son o'nlik nuqtadan keyin ikki xona aniqlik bilan chiqarilishi kerak (*writeln (a:6:2, ..., b:6:2, ..., c:6:2)*).

24. *a*, *b* va *c* kasr o'zgaruvchi qiymatlarining har birini alohida satrdan o'zg'uruvchi nomlari ko'rsatilgan ko'rinishda chiqaring.

*Qo'shimcha ko'rsatmalar*

*Crt* standart kutubxona *write* va *writeln* ko'rsatmalari bilan chiqariladigan o'zgaruvchilarga tag rang va belgi ranglarini bera oluvchi protseduralarga ega. Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin, quyidagilarni eslash kerak:

- *Crt* kutubxona protsedura va funksiyalarini ishlata olish uchun dasturdagi birinchi ko'rsatma *Uses Crt* bo'lishi kerak;
- belgililar rangini *TextBackGround* protsedurasi o'rnatadi;
- tag rangini *TextColor* protsedura belgilaydi;
- *TextBackGround* va *TextColor* protseduralarini ishlatalishda rang tanlangan o'zgaruvchi yoki butun o'zgarmaslar bilan berilishi mumkin;
- *Clr Scr* protsedura ekranni tozalaydi;

- dastur matniga *ClrScr*, *TextBackGround* va *TextColor* protseduralaridan foydalanish mumkin bo'lishi uchun *Uses Crt* direktivasini kiritish kerak.



## MASALALAR

25. Quyidagi to'rtlikni kulrang harflar bilan ko'k rangli yuzaga chiqarish dasturini yozing:

Dunyo bamisoli bir zarrin ko'za,  
Suvi goh achchig'-u, goh shirin bo'za.  
Ey, inson, umringga bino qo'yma ko'p,  
Qazoyi muallaq turar bosh uzra!

*Pahlavon Mahmud*

26. Quyidagi kamalak rangini bildiruvchi so'zlar ketma-ketligini ekranga chiqarish dasturini yozing: qizil, olovrang, sariq, yashil, havorang, ko'k, binafsharang. Har bir rang nomini bildiruvchi so'z shu rangli harflar bilan yozilishi kerak.



### 2.1.4. Kiritish ko'rsatmasi

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quyidagilarni eslash kerak:

- Dastur bilan ishslash vaqtida boshlang'ich qiymatlarni klaviaturadan kiritish uchun *readln* ko'rsatmasi berilgan.
- Bitta *readln* ko'rsatmasi bilan bir nechta o'zgaruvchilarni kiritish mumkin.
- Dastur ishi vaqtida kiritiladigan ma'lumotlar turi *readln* ko'rsatmasidagi o'zgaruvchi turiga mos kelishi kerak.
- O'zgaruvchining klaviaturadan kiritilayotgan qiymati kiritilgan ma'lumotlar turiga mos kelmasa, dastur ishini tugatadi va ekranga *Error 106 : Invalid numeric format* (agar, dastur *Turbo Pascal* muhitidan ishga tushirilgan bo'lsa) yoki *Run time error 106* (agar dastur operatsion tizimdan ishga tushirilgan bo'lsa) degan axborot chiqadi.



## MASALALAR

27. *U va r* o'zgaruvchilar qiymatini kiritishni ta'minlovchi ko'rsatma yozing. Dastur ishslash vaqtida dasturchi har bir sonni terganidan keyin <*Enter*> klavishini bosadi, deb hisoblanadi. Foydalanuvchi sonlarni har xil satrdan kiritadi.

28. *U va r* o'zgaruvchilar qiymatini kiritishni ta'minlovchi ko'rsatma yozing. Foydalanuvchi sonlarni bir satrdan kiritadi.


29. Zarur o'zgaruvchilarni e'lon qiling va boshlang'ich ma'lumotlarning kiritilishini, silindr hajmini hisoblashni ta'minlaydigan dastur bo'lagini yozing.



### 2.1.5. Chiziqli tasnifli dasturlar

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quyidagilarni eslash kerak:

- chiziqli tasnifli dasturlar eng oddiy dasturlardir va ular, odatda, formula bo'yicha hisoblashlarni amalga oshirishda ishlataladi;
- chiziqli tasnifli dasturlarda ko'rsatmalar bir-biridan keyin chiziqli ketma-ketlikda bajarib boriladi;
- chiziqli tasnifli dastur algoritmi quyidagicha bayon etilishi mumkin:



**! Izoh:** masala shartlarida dasturchi kiritadigan sonlar yo'g'on shrift bilan yozilgan.



### MASALALAR

30. Parallelogramm yuzasini hisoblash dasturini tuzing. Ekranga natijalarning quyidagicha chiqarilishi tavsiya etiladi:

Parallelogramm yuzasini hisoblash.

Boshlang'ich qiymatlarni kirititing:

Uzunlik (sm) → 9

Kenglik (sm) → 7.5

Parallelogramm yuzi: 67.50 sm<sup>2</sup>.

31. Parallelepiped sirt yuzasini hisoblash dasturini tuzing. Quyida dastur ishslash vaqtidagi ekranning tavsiya qilinadigan ko'rinishi berilgan.

Parallelepiped sirt yuzasini hisoblash.

Boshlang'ich qiymatlarni kriting:

Uzunlik (sm) → 9

Kenglik (sm) → 7.5

Balandligi (sm) → 5

Sirt yuzasi: 90.00 sm<sup>2</sup>.

32. Silindr hajmini hisoblash dasturini yozing. Quyida dastur ishslash vaqtidagi ekranning tavsiya qilinadigan ko'rinishi berilgan.

Silindr hajmini hisoblash.

Boshlang'ich qiymatlarni kriting:

Asos radiusi (sm) → 5

Silindr balandligi (sm) → 10

Dastur ishini tugatish uchun <Enter>ni bosing.

Silindr hajmi: 1570.80 sm<sup>3</sup>.

33. Bir necha daftar va qalamlardan iborat xarid qiymatini hisoblash dasturini yozing. Quyida dastur ishslash vaqtidagi tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan..

Xarid qiymatini hisoblash.

Boshlang'ich qiymatlarni kriting:

Daftar bahosi (so'm) → 40

Daftarlарsoni → 5

Qalam bahosi (so'm) → 30

Qalam soni → 2

Xarid qiymati: 260 so'm.

34. Agar berilgan uchburchakning ikki tomoni va ular o'rta sidagi burchagi ma'lum bo'lsa, uchburchak yuzini hisoblash dasturini yozing. Quyida dastur ishslash vaqtidagi tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Uchburchak yuzini hisoblash.

Uchburchak 2 tomoni uzunligi: (sm) → 25 17

Uchburchak tomonlari orasidagi burchak kattaligi (gradus) → 30

Uchburchak yuzi: 106.25 sm<sup>2</sup>.

35. Ikkita parallel ulangan qarshiliklardan iborat elektr zanjir qarshiligini hisoblash dasturini yozing. Quyida dastur ishslash vaqtidagi tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan:

Elementlari parallel ulangan elektr zanjir qarshiligini hisoblash.

Boshlang'ich qiymatlarni kriting:

Birinchi qarshilik kattaligi (Om) → 15

Ikkinci qarshilik kattaligi (Om) → 20

Zanjir qarshiligi: 8.57 Om.

36. Avtomobilda dala hovliga borish va qaytish qiymatini hisoblash dasturini yozing. Quyidagilar boshlang'ich qiymatlar: dala hovligacha masofa (km.larda); 100 km masofaga ketadigan benzin miqdori, 1 litr benzin bahosi. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Dala hovliga borish va qaytish safari qiymati.

Dala hovligacha masofa (km) → 67

Benzin sarfi (100 km masofaga, litr) → 8.5

Litr benzin bahosi (so'm) → 150

Dala hovliga borish va qaytish qiymati: 1708.5 so'm.

37. Silindr sirt yuzasini hisoblash dasturini yozing. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Silindr sirt yuzasini hisoblash.

Boshlang'ich qiymatlar:

Asos radiusi (sm) → 5,5

Silindr balandligi (sm) → 7

Silindr sirt yuzasi: 431.97 sm<sup>2</sup>.

38. Ixtiyoriy berilgan qiymatlarda parallelepiped hajmini hisoblash dasturini yozing.

39. Ixtiyoriy berilgan qiymatlarda kub hajmini hisoblash dasturini yozing.

40. Ixtiyoriy berilgan qiymatlarda uchburchak yuzini hisoblash dasturini yozing.

41. Verstlarda berilgan masofa uzunligini km.larga aylantirish dasturini tuzing (1 verst = 1066.8 m). Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Masofani verstlardan km.ga aylantirish.

Verstlardagi masofani kriting va <Enter>ni bosing → 100

100 verst → bu 106.68 km.

42. Kartada ko'rsatilgan ikkita aholi punkti o'tasidagi masofani hisoblash dasturini yozing (karta mashtabi 120 km bir sm.da. Kartadagi ikki nuqta orasidagi masofa 3.5 sm).

43. Omonat mablag'lar bo'yicha daromad miqdorini hisoblash dasturini tuzing. Daromad foizi (yillik foizga nisbatan) va omonatni saqlash vaqtiga (kunlarda) omonat miqdori dastur ishslash vaqtida beriladi. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Omonat bo'yicha daromadni hisoblash.

Boshlang'ich qiymatlarni kriting:

Omonat miqdori (so'm) → 2500

Omonat muddati (kunlarda) → 30

Qo'shimcha foiz (yillik) → 20

Daromad: 41.10 so'm.

Omonat muddati oxiridagi yig'indi: 2541.10 so'm.

44. Minutlarda berilgan vaqt oralig'i miqdorini soat va minutlarga aylantirish dasturini yozing. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Vaqt oralig'i miqdorini kriting (minutlarda) va <Enter> ni bosing → 150

150 minut → bu 2 soat 30 minut.

45. Klaviaturadan kiritilgan kasr sonni pul formatiga o'tkazish dasturini yozing. Masalan, 12.5 soni 12 so'm 50 tiyin ko'rinishiga keltirilishi kerak.

Sonni pul formatiga o'zgartirish.

Kasr sonni kriting → 23.6

23.6 so'm → bu 23 so'm 60 tiyin.



### 2.1.6. Tanlov (IF) ko'rsatmasi

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quyidagilarni eslash kerak:

- *if* ko'rsatma dasturning keyingi yo'lida (bajarilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalar ketma-ketligida) ikki yo'nalishdan birini tanlash uchun ishlatalidi;
- ko'rsatmalar ketma-ketligini tanlash shartning bajarilishiga bog'liq ravishda dasturning bajarilish vaqtida amalga oshiriladi;
- shart-mantiqiy turdag'i ifoda bo'lib, u ikkita qiymatdan birini tanlashi mumkin: *True* (haqiqat — shart bajariladi) yoki *False* (yolg'on — shart bajarilmaydi);
  - oddiy mantiqiy *and* (mantiqiy «VA») va *or* (mantiqiy «YOKI») amallari yordamida oddiy shartlardan murakkablarini tuzish mumkin.



*Izoh:* masala shartlarida dasturchi kiritadigan sonlar yo'g'on shrift bilan yozilgan.



### MASALALAR

46. Ikki sonni bo'lishdan hosil bo'ladigan bo'linmani hisoblash dasturini tuzing. Dastur foydalanuvchi kiritgan qiymatlarning

to'g'riliгини текшіріши керак, agar ular noto'g'ri bo'lса (bo'luvchi nolga teng), xato to'g'risidagi axborot chiqarilsin. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Bo'linmani hisoblash.

Bitta satrdan bo'linuvchi va bo'luvchini kriting.

Keyin <Enter>ni bosing → 12 0

Adashdingiz. Bo'luvchi nolga teng bo'lmasligi kerak.

47. Ichi teshik halqa yuzasini hisoblash dasturini tuzing. Dastur boshlang'ich qiymatlarning to'g'riliгини текшіріши керак. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Halqa yuzini hisoblash.

Boshlang'ich qiymatlarni kriting:

Halqa radiusi (sm) → 3.5

Teshik radiusi (sm) → 7

Xato! Teshik radiusi halqa radiusidan katta bo'lmasligi kerak!

48. Ikki qarshilikdan iborat elektr zanjir qarshiligini hisoblash dasturini tuzing. Qarshiliklar ketma-ket yoki parallel ulangan bo'lishi mumkin. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Elektr zanjir qarshiligini hisoblash.

Boshlang'ich qiymatlarni kriting:

Birinchi qarshilik miqdori (Om) → 15

Ikkinchi qarshilik miqdori (Om) → 27.3

Ulanish turi (1-ketma-ket, 2-parallel) → 2

Zanjir qarshiligi: 9.68 Om.

49. Kvadrat tenglamani yechish dasturini yozing. Dastur boshlang'ich qiymatlarning to'g'riliгини текшіріши керак. Ikkinchi darajali noma'lum son oldidagi koefitsientler nolga teng bo'lса, tegishli axborot chiqishi kerak. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Kvadrat tenglamani yechish.

Bitta satrdan koefitsientler qiymatini kriting va <Enter>ni bosing → 12      27      - 10

Tenglama ildizlari:

$$x_1 = - 25.551$$

$$x_2 = - 28.449$$

50. Xaridorning imtiyozini hisobga olgan holda xarid qiymatini hisoblash dasturini tuzing. Agar xarid yig'indisi 5000 so'mdan katta bo'lса 3 %, 10000 so'mdan katta bo'lса 5 % dan xaridorga yon bosiladi. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Imtiyozni hisobga olgan holda xarid qiymatini hisoblash.

Xarid qiymatini kirititing va <Enter>ni bosing → 6400  
Sizga 3 % imtiyoz beriladi.

Imtiyoz hisobga olingan holda xarid jami: 6208.0 soʻm.

51. Xarid jami 10000 soʻmdan koʻp boʻlsa, xarid qiymatiga 10 % yon bosiladi. Shuni hisobga oluvchi xarid qiymatini hisoblash dasturini yozing.

52. Buyuk oʻzbek shoiri Alisher Navoiy tugʻilgan yili toʻgʻriligini tekshirish dasturini tuzing. Xato javob berilganda, dastur toʻgʻri javobni chiqarsin. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran koʻrinishi berilgan.

Alisher Navoiy qachon tugʻilgan?

Sanani kirititing va <Enter>ni bosing → 1563

Adashdingiz. Alisher Navoiy 1441-yilda tugʻilgan.

53. Fanlar tarixini bilish boʻyicha bilimni tekshirish dasturini tuzing. Dastur savolni va unga uchta javobni chiqarishi kerak. Foydalanuvchi toʻgʻri javobni tanlashi va үning raqamini kiritishi kerak. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran koʻrinishi berilgan.

Kibernetika fani asoschisi:

1. Andre Mari Amper.

2. Isaak Nyuton.

3. Norbert Vinner.

Toʻgʻri javob raqamini kirititing va <Enter>ni bosing → 2

Adashdingiz. Kibernetika fani asoschisi — Norbert Vinner → .

54. Klaviaturadan kiritilgan ikkita butun sonni taqqoslash das turini tuzing. Dastur qaysi son kattaligini koʻrsatishi va agar sonlar teng boʻlsa, tegishli axborotni chiqarishi kerak. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran koʻrinishi berilgan.

Bitta satrdan ikkita butun sonni kirititing va <Enter> ni bosing  
→ 34 67

34 soni 67 dan kichik.

55. Koʻpaytirilishi kerak boʻlgan ikkita bir xil xonali sonlarni chiqaruvchi, foydalanuvchi javobini soʻrovchi, uni tekshiruvchi va «Toʻgʻri!» yoki «Adashdingiz» axborotlarini va toʻgʻri javobni chiqaruvchi dastur tuzing. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran koʻrinishi berilgan.

6 x 7 nechaga teng?

Javobni kirititing va <Enter>ni bosing → 56

Adashdingiz. 6 x 7 = 42.

56. Ikkinci jahon urushi boshlanishi sanasini bilishning tekshiruvchi dasturini tuzing. Dastur toʻgʻri javobni baholashi, xato javobda u toʻgʻrisini chiqarishi kerak.

57. Biror soha bo'yicha bilimni tekshiruvchi dastur tuzing. Dastur savolni va unga uch xil javob variantini chiqarishi kerak. Foydalanuvchi to'g'ri javob raqamini kiritishi kerak. To'g'ri va xato javoblar dastur tomonidan izohlanishi kerak.

58. 100 gacha bo'lgan sonlar bilan ayirish amalini bajarishga misol chiqaruvchi, foydalanuvchi javobini tekshiruvchi, unga izohlar beruvchi dastur tuzing. Quyida tavsiya etiladigan ekran ko'rinishi beriladi:

83—17 necha bo'ladi?

Javobni kriting va <Enter>ni bosing → 67

Adashdingiz.  $83 - 17 = 66$ .

59. Kiritilgan sonning juftligini tekshiruvchi dastur yozing. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Butun sonni kriting va <Enter>ni bosing → 23

23 soni — toq.

60. Klaviaturadan kiritilgan son uchga bo'linishini tekshiruvchi dastur tuzing. Javoblar izohli bo'lsin. Masalan,

Butun sonni kriting va <Enter>ni bosing → 451

451 soni uchga bo'linmaydi.

61. Shanba va yakshanba kungi telefon orqali so'zlashuvlarning 20 % arzonligini hisobga olgan holda so'zlashuvlar qiymatini aniqlovchi dastur tuzing. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Telefon orqali so'zlashuvlar qiymati.

Boshlang'ich qiymatlarni kriting:

So'zlashuv vaqtি (butun son. Minut) → 3

Hafta kuni (1-dushanba, ..., 7-yakshanba) → 6

20 % arzonlashtiriladi.

So'zlashuvlar qiymati: 55.2 so'm.

62. Foydalanuvchining optimal vaznnini hisoblovchi, uni real vazn bilan taqqoslovchi va foydalanuvchiga semirish yoki ozish zaruriyati to'g'risida tavsiyalar beruvchi dastur tuzing. Optimal vazn bo'y uzunligidan (sm) 100 ni ayirish natijasiga teng. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Bitta satrdan bo'shliq (probel) orqali bo'y (sm) va vazn (kg) qiymatlarini kriting va <Enter>ni bosing → 170 68

Siz 2 kg semirishingiz kerak.

63. 1 dan 100 gacha bo'lgan sonlarning juftlarini kvadratga, toqlarini kub darajaga ko'tarib, ularning yig'indisini hisoblang.

## 2.1.7. CASE ko'rsatmasi

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quyidagilarni eslash kerak:

- Case ko'rsatma dastur keyingi yo'lining (bajarilishi kerak bo'ladigan ko'rsatmalar ketma-ketligida) bir nechta yo'nalişlaridan birini tanlash kerak bo'lganda ishlatiladi.
- Ketma-ket ko'rsatmalardan birini tanlash dastur bajarilishi vaqtida, o'zgaruvchining ko'rsatmalar guruhi boshida berilgan saralovchi o'zgarmas qiymatiga tengligiga bog'liq ravishda amalga oshiriladi.
- Saralovchi o'zgaruvchi sifatida butun (*integer*) yoki ramziy (*char*) turdag'i o'zgaruvchilardan foydalaniлади.



### MASALALAR

64. Foydalanuvchidan oy raqamini so'rovchi va bu oy yilning qaysi mavsumiga tegishli ekanligi to'g'risida javob beruvchi dastur tuzing. Agar foydalanuvchi mumkin bo'Imagan son kirlitsa, dastur xato son berilganligi to'g'risida axborot chiqarsin. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Oy raqamini kiriting (1 dan 12 gacha) va <Enter>ni bosing → 11 Qish.

65. Shaharlararo telefon orqali so'zlashuv qiymatini hisoblovchi dastur tuzing (u minut bahosi — abonentning shahargacha bo'lgan masofasi — uzunligi bilan aniqlanadi). Dastur uchun shahar kodi va so'zlashuv vaqtি boshlang'ich qiymatlар bo'lib xizmat qiladi. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Telefon orqali so'zlashuvni hisoblash.

Boshlang'ich qiymatlarni kiriting:

Shahar kodi → 371

So'zlashuv vaqtি (butun son minut) → 3

Shahar: Toshkent.

Minut bahosi: 150 so'm.

So'zlashuv bahosi: 450 so'm.

Shahar	Kod	Bir minut bahosi, so'm
Toshkent	371	150
Samarqand	366	120
Qarshi	375	100
Buxoro	365	130

66. Keyingi kun sanasini hisoblovchi dastur tuzing. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Bugungi sanani raqamlarda kriting (son oy yil) → 31. 12. 2005.

Oyning oxirgi kuni!

Kelayotgan Yangi yil bilan!

Ertaga 01.01.2006.

67. Foydalanuvchidan hafta kuni raqamini so'rovchi va shu kunning nomlanishini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.



### 2.1.8. FOR ko'rsatmasi

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quyidagilarni eslash kerak:

- *for* ko'rsatma dasturda, ishlab chiqish vaqtida aniqlanuvchi, takrorlashlarning ma'lum sondagi sikllarini tashkil etish uchun ishlatalidi.

- Takrorlashlar soni o'zgaruvchi — hisobchining boshlang'ich va oxirgi qiymatlari bilan aniqlanadi.

- O'zgaruvchi — hisobchi butun turda (*integer*) bo'lishi kerak.



*Izoh:* masala shartlarida dasturchi kiritadigan sonlar yo'g'on shrift bilan yozilgan.



### MASALALAR

68. Birinchi o'nta butun musbat sonlar kvadratlari jadvalini chiqaruvchi dastur tuzing. Quyida dastur ishlash vaqtida hosil bo'lishi kerak bo'ladigan ekran ko'rinishi tavsiya etiladi:

Kvadratlar jadvali

Son	Kvadrat
1	1
2	4
3	9
4	16
5	25

Son	Kvadrat
6	36
7	49
8	64
9	81
10	100

69. Birinchi «n» ta butun musbat sonlar yig'indisini hisoblovchi dasturni yozing. Qo'shiladigan sonlar dastur ishlayotgan vaqtida kiritilishi kerak. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.



Musbat sonlar yig'indisini hisoblash.

Qo'shiladigan sonlar miqdorini kriting → 20

Birinchi 20 ta musbat sonlar yig'indisi 210 ga teng.

70. Birinchi butun musbat toq sonlar kvadratlari jadvalini chiqaruvchi dastur tuzing.

71. Dastlabki  $n$  ta butun musbat sonlar yig'indisini hisoblovchi dastur tuzing.

72. 1,3,5,7, ... qatorning birinchi  $n$  ta hadi yig'indisini hisoblash dasturini tuzing. Qo'shiluvchi hadlar soni dastur ishi vaqtida beriladi. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

1,3,5,7, ... qatorning xususiy yig'indisini topish.

Qatorning qo'shiluvchi hadlar sonini kriting → 15

Qatorning dastlabki 15 ta hadi yig'indisi:

330.

73.  $1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{3} + \frac{1}{4} + \dots$  qatorning birinchi  $n$  ta hadi yig'indisini hisoblash dasturini tuzing. Qo'shiluvchi hadlar soni dastur ishi vaqtida beriladi. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

$1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{3} + \frac{1}{4} + \dots$  qator xususiy yig'indisini hisoblash.

Qator qo'shiluvchi hadlar sonini kriting → 15

Qatorning dastlabki 15 ta hadi yig'indisi:

3.3182.

74. Ikki sonining 0 dan 10 gacha bo'lган darajalari jadvalini chiqaruvchi dastur tuzing. Quyida dasturning ish vaqtida tavsiya etiladigan ekran ko'rinishi keltiriladi:

Ikkining darajalari	Natija
0	1
1	2
2	4
3	8
4	16
5	32

Ikkining darajalari	Natija
6	64
7	128
8	256
9	512
10	1024

75. Sonning faktorialini hisoblovchi dastur tuzing.

76. Klaviaturadan kiritilgan 5 ta kasr sonlarning o'rta qiymatini hisoblovchi dastur tuzing.

77. Klaviaturadan kiritilgan 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarning takrorlanishini ham hisobga olib, ularning o'rta arifmetik qiymatini hisoblovchi dastur tuzing.

78. Mahsulotning og'irligiga ko'ra, bahoni ekranga chiqaruvchi jadval tuzing. Masalan, 1 kg 16 so'm 50 tiyin bo'lsin.

79.  $y = -2,4x^2 + 5x - 3$  funksiyaning  $-2$  dan  $2$  gacha sohada  $0,5$  qadam bilan o'zgargandagi qiymatlari jadvalini chiqaruvchi dasturni tuzing. Quyida dasturning ish vaqtida tavsiya etiladigan ekran ko'rinishi keltiriladi:

x	y
- 2	- 22,60
- 1,5	- 15,90
- 1	- 10,40
- 0,5	- 6,10
0	- 3,00

x	y
0,5	- 1,10
1	0,40
1,5	- 0,90
2	- 2,60

80.  $y = |x + 2|$  funksiyaning qiymatlar jadvalini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing. «»  $-4$  dan  $4$  gacha  $0,5$  qadam bilan o'zgaradi.

81.  $y = |x - 2| + |x + 1|$  funksiyaning qiymatlar jadvalini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing. «»  $-4$  dan  $4$  gacha  $0,5$  qadam bilan o'zgaradi.

82. Klaviaturadan beshta kasr sondan iborat ketma-ketlikni kiritish dasturini tuzing. Dasturda har bir son kiritilgandan keyin ketma-ketlikning hosil bo'lgan qismi uchun o'rta arifmetik qiymat chiqarilishi hisobga olingan bo'lsin. Dasturning ish vaqtida tavsiya etiladigan ekran ko'rinishi quyida keltirilgan.

Kasr sonlar ketma-ketligini qayta ishlash.

Har bir son kiritilgandan keyin  $<Enter>$ ni bosing  $\rightarrow 12.3$

Kiritilgan son: 1 ta yig'indi 12.30 o'rta arifmetik: 12.30  $\rightarrow 15$

Kiritilgan son: 2 ta yig'indi 27.30 o'rta arifmetik: 13.65  $\rightarrow 10$

Kiritilgan son: 3 ta yig'indi 37.30 o'rta arifmetik: 12.43  $\rightarrow 5.6$

Kiritilgan son: 4 ta yig'indi 42.90 o'rta arifmetik: 10.73  $\rightarrow 11.5$

Kiritilgan son: 5 ta yig'indi 54.40 o'rta arifmetik: 10.88

Dastur ishini tugatish uchun  $<Enter>$ ni bosing.

83. Klaviaturadan kiritilayotgan kasr sonlar ketma-ketligining o'rta arifmetigini hisoblash dasturini tuzing. Oxirgi son kiritilganidan keyin dastur ketma-ketligining eng kichik va eng katta sonini chiqarishi kerak. Sonlar miqdori dastur ishi vaqtida beriladi. Quyida dasturning ishi vaqtida tavsiya etiladigan ekran ko'rinishi keltirilgan.

Kasr sonlar ketma-ketligini qayta ishlash.

Ketma-ketlikdagi sonlar miqdorini kirititing → 5

Ketma-ketlikni kirititing. Har bir son kiritilgandan keyin **<Enter>**ni bosing.

→ 5.4

→ 7.8

→ 3.0

→ 1.5

→ 2.3

Sonlar miqdori: 5

O'rta arifmetik: 4.00

Minimal son: 1.5

Maksimal son: 7.8

Dasturning ishini tugatish uchun **<Enter>** klavishini bosing.

84. 1 dan 10 gacha sohadagi 10 ta tasodifiy sondan iborat uchta ketma-ketlikni ajratuvchi dasturni yozing. Dastur har bir ketma-ketlikni ekranga chiqaradi va har bir ketma-ketlik o'rta arifmetigini hisoblaydi. Dasturning ishlash vaqtidagi ekran ko'rinishi quyida keltirilgan:

\*\*\* Tasodifiy sonlar \*\*\*

6	10	4	2	5	8	1	7	7	3	O'rta arifmetigi	5.30
10	3	6	1	10	1	3	8	7	6	O'rta arifmetigi	5.50
5	2	2	5	4	2	2	1	6	10	O'rta arifmetigi	3.90

Ishni tugatish uchun **<Enter>** klavishini bosing.

85.  $y=|x|$  funksiyaning argument sohasi  $-4$  dan  $4$  gacha  $0,5$  qadam bilan o'zgargandagi qiymatlari jadvalini hosil qilish dasturini tuzing.

86. Ekranga ko'paytirish (masalan, 7 ga) jadvalini chiqarish dasturini tuzing. Dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi quyidagicha:

$$7 \times 2 = 14$$

$$7 \times 6 = 42$$

$$7 \times 3 = 21$$

$$7 \times 7 = 49$$

$$7 \times 4 = 28$$

$$7 \times 8 = 56$$

$$7 \times 5 = 35$$

$$7 \times 9 = 63$$

87. Klaviaturadan 0 dan 255 gacha bo'lgan sohadagi o'nlik butun sonni ikkilikda berish dasturini yozing. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

O'nlik sonni ikkilikka aylantirish.

[0; 255] sohadan butun son kriting va <*Enter*>ni bosing → 164

O'nlik 164 soniga 10100100 ikkilik soni mos keladi.

Dastur ishini tugatish uchun <*Enter*> klavishini bosing.

88. Ekranga Pifagorning ko'paytirish jadvalini chiqarish dasturini tuzing. Dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi quyidagicha:

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
2	2	4	6	8	10	12	14	16	18	20
3	3	6	9	12	15	18	21	24	27	30
4	4	8	12	16	20	24	28	32	36	40
5	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50
6	6	12	18	24	30	36	42	48	54	60
7	7	14	21	28	35	42	49	56	63	70
8	8	16	24	32	40	48	56	64	72	80
9	9	18	27	36	45	54	63	72	81	90

89.  $1 - 1/3 + 1/5 - 1/7 + 1/9 - \dots$  qatomning xususiy yig'indisini hisoblaydigan va hosil bo'lgan qiymatni  $\pi/4$  bilan taqqoslaydigan (yetarli darajada katta miqdordagi hadlar qo'shilganda, xususiy yig'indi  $\pi/4$  ga yaqinlashib boradi) dastur tuzing.

90. Ko'paytirish jadvalini bilishni tekshiruvchi dastur tuzing. Dastur bo'yicha 10 ta misol ishlanishi, 10 ta to'g'ri javob uchun «a'lo», 9 va 8 tasi uchun «yaxshi», 7 tasi uchun «qoniqarli», 6 va undan kam to'g'ri javoblar uchun «yomon» baho qo'yilishi kerak. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan:

$$5 \times 3 = 15$$

$$7 \times 7 = 49$$

$$1 \times 4 = 4$$

$$4 \times 3 = 12$$

$$9 \times 4 = 36$$

$$8 \times 8 = 64$$

$$7 \times 8 = 52$$

$$\text{Adashdingiz. } 7 \times 8 = 56.$$

$$4 \times 7 = 28$$

$$3 \times 5 = 15$$

$$2 \times 5 = 10$$

To'g'ri javoblar: 9.

Baho: yaxshi.

91. 100 gacha bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirishni bajarishni tekshirish. Dastur bo'yicha 10 ta misol ishlanishi kerak, har bir misolda kamayuvchi son ayiriluvchi sondan katta yoki unga teng bo'lishi kerak (manfiy son hosil qilish mumkin emas). Baholash quyidagicha bo'ladi: 10 ta to'g'ri javob uchun «a'lo», 9 va 8 tasi uchun «yaxshi», 7 tasi uchun «qoniqarli», 6 va undan kam to'g'ri javoblar uchun «yomon» baho. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Sonlarni qo'shish va ayirish ko'nikmasini tekshirish.

Misoldan keyin javobni kiriting va <Enter>ni bosing.

$$75 - 4 = 71$$

$$35 - 9 = 29$$

Adashdingiz.  $35 - 9 = 26$ .

$$14 - 1 = 13$$

$$6 - 5 = 1$$

$$37 - 19 = 28$$

Adashdingiz.  $37 - 19 = 18$ .

$$53 - 14 = 39$$

$$94 - 87 = 7$$

$$90 - 16 = 74$$

$$4 - 2 = 2$$

$$89 - 41 = 48$$

To'g'ri javoblar: 8.

Baho: yaxshi.

92. Ekranga, masalan, uch minut mobaynida yoki foydalanuvchi ixtiyoriy klavishni bosgunga qadar ishlaydigan «elektron soat»ni chiqaruvchi dasturni tuzing.

93. Ekranga shaxmat taxtasi ifodasini chiqaruvchi dasturni tuzing. Yulduzchalar (\*) qora kataklarni, bo'shilq oq kataklarni bildirsin.

94. «m» va «n» o'zgaruvchilari oralig'ida qiymatlar kvadratlari yig'indisini hisoblang.

95.  $a \leq 20$ ;  $1 \leq b \leq 20$  bo'lganda  $a^2 + b^2 = c^2$  tenglikni qanoatlantiruvchi (Pifagor) sonlarini aniqlang.

96. Raqamlar kublarining yig'indisi sonning o'ziga teng bo'ladi-gan barcha uch xonalni sonlarni toping (masalan,  $407 = 4^3 + 0^3 + 7^3 = 64 + 0 + 343$ ).

## 2.1.9. REPEAT ko'rsatmasi

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quyidagilarni eslash kerak:

- siklning *repeat* ko'rsatmasi takrorlanishlar sonini dastur bajarilishining borishi bilan aniqlab boradi;
- *repeat* sikl ko'rsatmasi *until* so'zidan keyingi shart yolg'on bo'lguncha bajariladi;
- *until* so'zidan keyin siklning tugash shartini yozish kerak;
- *repeat* siklini tugatish uchun sikl tanasida siklning tugashiga ta'sir qiluvchi ko'rsatma, albatta, bo'lishi va bajarilishi kerak;
- *repeat* siklida sikl tanasidagi ko'rsatmalar hech bo'limganda bir marta bajariladi;
- *repeat* sikli, odatda, taqribiy hisoblashlarni tashkil qilishda, izlash va klaviatura yoki fayldan kiritiladigan ma'lumotlarni qayta ishlashda ishlatiladi.

**Izoh:** masala shartlarida dasturchi kiritadigan sonlar yo'g'on shrift bilan yozilgan.



### MASALALAR

97. Foydalanuvchi kiritgan butun son tub ekanligini tekshirish dasturini tuzing. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Butun sonni kriting va <Enter>ni bosing → 45

45 — tub son emas.

98. 1 dan 10 gacha bo'lgan sohadagi son «o'ylaydigan» va foydalanuvchiga 5 ta urinishda sonni topadigan dastur tuzing. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

«Sonni top» o'yini.

Kompyuter 1 dan 10 gacha bo'lgan son «o'yladi».

Uni 5 urinishda toping.

Sonni kriting va <Enter>ni bosing → 5

Yo'q

→ 3

Siz yutdingiz! Tabriklayman!

99. Berilgan vaqt oralig‘idan keyin ovoz signalini beruvchi dastur — taymer tuzing. Vaqt oralig‘i miqdori dastur ishi vaqtida klaviaturadan kiritiladi.

100. Klaviaturadan kiritiladigan musbat sonlar o‘rtacha arifmetigini topish dasturini yozing.

101. Klaviaturadan ketma-ket kiritilgan sonlardan maksimalini topish dasturini yozing.

102. Integralni trapetsiya usuli bilan taqribiy hisoblash dasturini yozing. Siklning har bir takrorlanishida dastur oraliq miqdorlari va kattaligini chiqarib borsin.



### 2.1.10. WHILE ko‘rsatmasi

Bu bo‘lim masalalarini yechishga o‘tishdan oldin quyidagilarni eslash kerak:

- *while* so‘zidan keyin yozilgan shart haqiqat bo‘lguncha *while* siklining ko‘rsatmalari bajariladi;
- *while* so‘zidan keyin sikl ko‘rsatmasining bajarilish shartini yozish kerak;
- *while* siklini tugatish uchun sikl tanasida sikl ko‘rsatmasining bajarilish shartiga ta’sir etuvchi ko‘rsatmalar bo‘lishi shart;
- *while* sikli ba’zi hollarda bir marta ham bajarilmasi mumkin;
- *while* sikli, odatda, taqribiy hisoblashlarni tashkil qilishda, izlash va klaviatura yoki fayldan kiritiladigan ma’lumotlarni qayta ishlashda ishlataladi.



*Izoh:* masala shartlarida dasturchi kiritadigan sonlar yozishda shrift bilan yozilgan.



### MASALALAR

103. Foydalanuvchi bergen aniqlik bilan  $\pi$  ni hisoblash dasturini yozing. Buning uchun quyidagidan foydalaning:  $1 - 1/3 + 1/5 - 1/7 + 1/9 - \dots$  qatorning xususiy yig‘indisi yetarli darajada katta sondagi hadlarni qo‘shtganda  $\pi/4$  ga yaqinlashib keladi. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko‘rinishi berilgan:

$\pi$  hisoblash aniqligini bering  $\rightarrow 0.001$

$\pi$  sonining 0.001000 aniqlik bilan qiymati  $\rightarrow 3.143589$

Qatorning 502 hadi qo‘shilgan.

104. Ikkita butun sonning eng katta umumiyligi bo'luvchisini topish dasturini yozing.

105.  $a$  sonini  $b$  soniga bo'lishdagi qoldig'ini, ( $a \leq 0; b > 0$ ) DIV va MOD amallaridan foydalanmay turib, aniqlang.

106.  $e = a^4$  ni darajaga ko'tarish amalini bajarmasdan hisoblang.

107. 100 sonigacha bo'lgan juft sonlarning kublari va toq sonlarning kvadratlari yig'indisini hisoblang.

108. Berilgan tub sonni ko'paytuvchilarga ajrating.



### 2.1.11. Belgilar va qatorlar

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quyidagilarni eslash kerak:

- har bir belgiga son — belgi kodi mos keladi;
- satrning alohida belgisiga yo'l topish uchun o'zgaruvchi (satrning) nomidan keyin kvadrat qavslarda uning raqamini ko'rsatish mumkin.



*Izoh:* masala shartlarida dasturchi kiritadigan sonlar yo'-g'on shrift bilan yozilgan.



### MASALALAR

109. Foydalanuvchidan uning nomini va sog'lig'ini so'rovchi dastur yozing. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Ismingiz nima?

Ismingizni kriting va <*Enter*>ni bosing

→ Eshmat

Assalomu alaykum, Eshmat!

110. «Telegraf» yo'sinida (ya'ni, axborot harflari bittadan, ba'zi bir sukul bilan paydo bo'lishi kerak) ekranga axborot chiqaruvchi dasturni yozing.

111. Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan belgi kodini ASCII standartida chiqaruvchi dasturni yozing. Dastur ishini, masalan, nuqta kiritilgandan keyin tugatishi kerak. Quyida dastur ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Belgini kriting va <*Enter*>ni bosing.

Dastur ishini tugatish uchun nuqtani kriting → •

→ 1

Belgi: 1      kod: 81



→ 2

Belgi: 8 kod: 88

→ E

Belgi: E kod: 101

→ •

112. Belgilar kodi jadvalining birinchi qismini (0 dan 127 gacha kodga ega bo'lgan belgilar) ekranga chiqarish dasturini yozing. Jadval sakkizta ustun va o'n oltita satrdan iborat bo'lishi kerak. Birinchi ustunda 0 dan 15 gacha kodga ega bo'lgan belgilar, ikkinchisida 16 dan 31 gacha va h.k. bo'lishi kerak.

113. Klaviaturadan kiritilgan kirill imlosining yozma harflarini bosma harflarga aylantirish dasturini yozing (kirill imloli *UpCase* funksiyasi ishlamasligini e'tiborga oling). Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Matn satrini kriting va <*Enter*>ni bosing.

→ Paskalni o'rgangach, Delfiga o'tish mumkin.

Yuqori registrda o'zgartirilgan satr:

**PASKALNI O'RGANGACH, DELFIGA O'TISH MUMKIN.**

114. Klaviaturadan kiritilgan satrning boshlang'ich bo'sh xonalarini olib tashlovchi dasturni yozing.

115. Klaviaturadan kiritilgan satr butun son ekanligini tekshiruvchi dasturni yozing. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Sonni kriting va <*Enter*>ni bosing.

→ 23.5

Kiritilgan satr butun son emas.

116. Klaviaturadan kiritilgan satr o'n otilik son ekanligini tekshirish dasturini yozing.

117. Klaviaturadan kiritilgan satr kasr son ekanligini tekshirish dasturini yozing.

118. Klaviaturadan kiritilgan sakkiz xonali ikkilik sonni o'nlikka aylantirish dasturini yozing. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Sakkiz xonali ikkilik sonni kriting va <*Enter*>ni bosing.

→ 11101010

Ikkilik 11101010 soniga o'nlik 324 soni mos keladi.

Dastur ishini tugatish uchun <*Enter*>ni bosing.

119. Klaviaturadan kiritilgan ikki xonali o'n otilik sonni o'nlikka aylantirish dasturini yozing.

120. Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan o'qlik sonni ko'rsatilgan sanoq tizimidagi (2 likdan 10 likkacha) songa o'tkazish dasturini yozing. Dastur ishlash vaqtida ekranning tavsiya qilinadigan ko'rinishi quyidagicha:

Butun sonni kriting → 67

Sanoq tizimi asosini kriting → 2  
100011

121. Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan o'qlik sonni o'n oltilikka o'tkazish dasturini yozing.

122.  $N_0 O_1, N_1 O_2, \dots, O_k N_k$  ifoda qiymatini hisoblovchi dasturni yozing, bu yerda,  $N$  – butun bir xonali son,  $O$  – oddiy arifmetik amallarning (qo'shish yoki ayirish) ikki belgisidan biri. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Arifmetik ifodani kriting, masalan,  $4 + 5 - 3 - 5 + 2$  va `<Enter>`ni bosing.

→ 9 – 5 + 4 + 2 – 6

Kiritilgan ifoda qiymati: 4

Dastur ishini yakunlash uchun `<Enter>`ni bosing.



### 2.1.12. Massivlar

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quydagilarni eslash kerak:

- massiv bu bir xil turdag'i elementlar to'plamini ifodalovchi ma'lumotlar tasnididir;
- massiv o'zgaruvchilarni e'lon qilish bo'limida e'lon qilinishi kerak;
- massivlarni e'lon qilishda nomlangan o'zgarmaslardan foydalanish qulay;
- massiv, elementiga yo'l element indeksi (raqami)ni ko'rsatish orqali ochiladi. Indeks sifatida butun turdag'i ifoda, masalan, butun o'zgarmas yoki *integer* turidagi o'zgaruvchi ishlataladi;
- massivlarni kiritish, chiqarish va qayta ishlashda sikl ko'r-satmalaridan (*for*, *while*, *repeat*) foydalanish qulay.



*Izoh:* masala shartlarida dasturchi kiritadigan sonlar yo'-g'on shrift bilan yozilgan.



### MASALALAR

123. Klaviaturadan beshta butun sondan iborat bir o'chovli massivni kirituvchi va nolmas elementlar miqdorini hisoblovchi dasturni yozing. Har bir elementni kiritishdan oldin ekranda tartib raqami bilan belgi izohi chiqsin.



Har bir son kiritilgach, *<Enter>* bosilsin.

a [1] → 12

a [2] → 0

a [3] → 3

a [4] → -1

a [5] → 0

Massivda nolmas elementlar uchta.

124. Klaviaturadan kiritilgan butun sonlar massividan eng kichik qiymatlisini topish dasturini tuzing. Quyida ish vaqtida tavsiya etiluvchi, ekran ko'rnishi berilgan.

Massivning minimal elementini topish.

Bir satrdan massiv elementlarini (5 ta butun son) kirititing va *<Enter>*ni bosing → 23    0    45    -5    12

Massivning minimal elementi: -5

125. Kunning haftalik o'rtacha haroratini hisoblovchi dasturni yozing. Boshlang'ich qiymatlar dastur ishlash vaqtida kiritilishi mumkin. Quyida ish vaqtida tavsiya etiluvchi ekran ko'rnishi berilgan.

Haftalik havo harorati ma'lumotlarini kirititing.

Dushanba → 12

Seshanba → 10

Chorshanba → 16

Payshanba → 18

Juma → 17

Shanba → 16

Yakshanba → 14

Haftalik o'rtacha harorat: 14.71 daraja.

126. Massivda klaviaturadan kiritilgan son bor-yo'qligini tekshiruvchi dasturni yozing. Ishlash vaqtida massiv kiritilishi kerak.

127.  $a/a_1, a_2, \dots, a_n$  haqiqiy qiymatli vektor berilgan. Uning hamma manfiy qiymatlarini kvadratlari bilan almashtiring.

128.  $a/a_1, a_2, \dots, a_n$  haqiqiy qiymatli vektor berilgan. Shu vektor elementlaridan  $(c,d)$  oraliqda yotgan elementlar yig'indisi va miqdorini toping.

129.  $a/a_1, a_2, \dots, a_n$  haqiqiy qiymatli vektor va  $X$  haqiqiy son berilgan. Vektor elementlarini tartibga soling va sonning elementlarning qaysi oralig'ida yotishini aniqlang.

130.  $a/a_1, a_2, \dots, a_n$  haqiqiy qiymatli vektor va  $X$  haqiqiy qiymatli son berilgan. Vektor elementlaridan nechasi shu songa teng bo'lishini aniqlang.

131.  $a/a_1, a_2, \dots, a_n$  haqiqiy qiymatli vektor berilgan. Shu vektorming musbat elementlarini 0,5 ga kamaytirib boring.

132. Massivning klaviaturadan kiritilgan elementlarini o'sib borish ketma-ketligida berilganini tekshiruvchi dasturni yozing.

133. Klaviaturadan kiritilgan son massivda nechanchi o'rinda turishini aniqlovchi dasturni yozing.

134.  $a_1, a_2, \dots, a_n$  haqiqiy qiymatli vektor berilgan. Shu vektorda nechta musbat, nechta manfiy son va nechta nol borligini aniqlang.

135.  $a_1, a_2, \dots, a_n$  haqiqiy qiymatli vektor berilgan. Vektorning manfiy hadigacha bo'lgan elementlar miqdorini hisoblang.

136.  $a_1, a_2, \dots, a_n$  haqiqiy qiymatli vektor berilgan. «Y» o'zgaruvchiga  $a$  vektorning hamma musbat elementlari yig'indisining ikkilangan qiymatini o'zlashtiring.

137.  $a_1, a_2, \dots, a_n$  haqiqiy qiymatli vektor berilgan. Vektor toq raqamli elementlarini 5 ga, juft raqamli elementlarini 3 ga ko'paytirib, ularning yig'indisini toping.

138.  $a_1, a_2, \dots, a_n$  haqiqiy qiymatli vektor berilgan. Uning manfiy elementlarini (vektorda joylashish tartibini buzmasdan) birinchi, manfiy bo'lмаган elementlarini esa keyingi o'rnlarda joylashtirib, yangi  $b_1, b_2, \dots, b_n$  vektor hosil qiling.

139. Klaviaturadan kiritilgan bir o'chovli massivni to'g'ri tanlov usuli bilan kamayish tarzida saralovchi dasturni yozing.

140. Klaviaturadan kiritilgan bir o'chovli massivni almashtirish («ko'pik») usuli bilan kamayish tarzida saralovchi dasturni yozing.

141. O'sib borish tarzida tartibga solingen 2 massivni birlashiruvchi dasturni yozing. Quyida ish vaqtida tavsiya etiluvchi ekran ko'rinishi berilgan.

Tartibga solingen ikkita massivni birlashtirish.

Bitta satrdan birinchi massiv elementlarini kiriting (5 ta butun son) → 1 3 5 7 9

Bitta satrdan ikkinchi massiv elementlarini kiriting (5 ta butun son) → 2 4 6 8 10

Natija — massiv

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10

Ishni yakunlash uchun <Enter>ni bosing.

142. Binar izlash usulini qo'llab, o'sib borish tarzida tartibga solingen massivda izlashni amalga oshiruvchi dasturni yozing.

143. Guruhda bo'yи o'ttachadan baland bo'lgan talabalar sonini aniqlash dasturini tuzing. Quyida ish vaqtida tavsiya etiluvchi ekran ko'rinishi berilgan:

\*\*\*Talabalar bo'yи tahlili\*\*\*

Bo'yini kiriting (sm) va <Enter>ni bosing.

Ishni yakunlash uchun 0 kriting va *<Enter>*ni bosing.

- 175
- 170
- 180
- 168
- 170
- 0

O'rtacha bo'y: 172.6 sm.

Ikki talabaning bo'yi o'rtachadan baland.

144. Klaviaturadan satrlar bo'yicha ikki o'lchovli massivni kirituvchi va uning ustunlar bo'yicha yig'indisini topuvchi dasturni yozing.

145. Ikkinci tartibli kvadrat matritsa aniqlovchisini hisoblovchi dasturni yozing. Quyida ish vaqtida tavsiya etiluvchi ekran ko'rinishi berilgan:

Ikkinci tartibli matritsanı kriting.

Satr elementlari kiritilgach, *<Enter>*ni bosing.

- 5      - 7
- 1      3

Matritsa aniqlovchisi:

5.00 - 7.00

1.00 3.00

22.00 ga teng.

146. Klaviaturadan kiritilgan kvadrat matritsa «afsunkor» (magik) kvadrat ekanligini tekshiring.

«Afsunkor» kvadrat deb, har bir satr, har bir ustun va har bir diagonal bo'yicha yig'indisi bir xil songa teng matritsaga aytildi (quyiga qarang):

2	9	4
7	5	3
6	1	8

13	8	12	1
2	11	7	14
3	10	6	15
16	5	9	4

147. Universiada o'yinlari natijalarini yakunlovchi dastur yozing. Foydalanuvchi dasturga har bir ishtirokchi – guruh qo'lga kiritgan har xil darajadagi medallar sonini kiritishi, dastur esa medallarning

umumiy soni va ularga mos keluvchi ochkolarni hisoblashi, shundan keyin to'plangan ochkolar soniga mos ravishda (oltin medal uchun — 7, kumush uchun — 6, bronza uchun — 5 ochko oladi) ro'yxatni tartibga solishi kerak. Dasturning ishlash vaqtida ekranning tavsya etiluvchi ko'rinishi quyida keltirilgan:

Universiada o'yinlari natijasi.

Bir satrda oltin, kumush va bronza medallari soni kiritilgan:

Andijon	→	3	6	9
Toshkent sh.	→	12	9	8
Jizzax	→	6	5	4
Navoiy	→	0	6	2
Namangan	→	3	1	2
Buxoro	→	10	10	5
Surxondaryo	→	9	6	3
Samarqand	→	6	3	4
Sirdaryo	→	2	4	6
Farg'ona	→	5	1	4
Xorazm	→	3	5	10
Qoraq. Resp.	→	3	4	5
Qashqadaryo	→	2	6	9
Toshkent vil.	→	2	2	1

#### Universiada o'yinlari yakunlari

T/r	Viloyatlar	Oltin	Kumush	Bronza	Jami	Ochkolar
1.	Toshkent sh.	12	9	8	29	178
2.	Buxoro	10	10	5	25	155
3.	Surxondaryo	9	6	3	18	114
4.	Andijon	3	6	9	18	102
5.	Xorazm	3	5	10	18	101
6.	Qashqadaryo	2	6	9	17	95
7.	Jizzax	6	5	4	15	92
8.	Samarqand	6	3	4	13	80
9.	Qoraq. Resp.	3	4	5	12	70
10.	Sirdaryo	2	4	6	12	68
11.	Farg'ona	5	1	4	10	61
12.	Navoiy	0	6	2	8	46
13.	Namangan	3	1	2	6	37
14.	Toshkent vil.	2	2	1	5	31

148. «Sonni top» o'yin dasturini tuzing. O'yin qoidalari quydagicha. Ikki kishi o'ynaydi. Biri son o'ylaydi, ikkinchisi uni topadi. Har qadamda topuvchi-o'yinch o'z farazini aytadi, sonni o'ylagan esa sonning nechta raqami topilganini va bu raqamlardan nechta sonda to'g'ri o'rinni egallaganini aytadi. Masalan, agar 725 soni o'ylangan va 523 taxmin kiritilgan bo'lsa, ikkita (5 va 2) soni topilgan va ulardan bittasi (2) to'g'ri o'rinni egallagan, deb hisoblanadi. Quyida ish vaqtida tavsiya etiluvchi ekran ko'rinishi berilgan.

Kompyuter uch xonali son o'yladi. Siz uni topishingiz kerak. Navbatdagi son kiritilgandan keyin Sizga nechta raqam topilgani va ulardan nechta o'z o'rinalarida ekanligi aytildi.

Sonni kiritgandan keyin <Enter>ni bosing.

O'yinni tugatish uchun <Esc>ni bosing.

Sizning variantingiz → 123      Topildi: 0. O'z o'mida: 0.

Sizning variantingiz → 456      Topildi: 1. O'z o'mida: 0.

Sizning variantingiz → 654      Topildi: 2. O'z o'mida: 2.

Sizning variantingiz → 657      Topildi: 2. O'z o'mida: 2.

Sizning variantingiz → 658      Topildi: 3. O'z o'mida: 3.

\*\*\* Siz topdingiz ! \*\*\*

Ishni tugatish uchun <Enter>ni bosing.

149. Foydalanuvchidan axborot qabul qiluvchi va uni ekrange nuqta va tirelar ketma-ketligi ko'rinishida chiqaruvchi telegraf-dastur yozing. Nuqta va tirelarni, mos uzunlikda, ovoz signallari hamrohligida berish mumkin. Kirill harflarining Morze belgilari quyida keltirilgan:

А . -	Б - ...	В . - - -	Г . - - .
Д - ..	Е .	Ж . . .	З . . . .
И ..	Й . - -	К . - . -	Л . - . .
М . - -	Н . - .	О . - - -	П . - - .
Р . - .	С . . .	Т . -	У . - .
Ф . . .	Х . . . .	Ц . - . .	Ч . - - -
Ш . - - -	Щ . - - . -	Ъ . - . .	Ы . - . -
Ҷ . - . -	Э . - - .	Ю . - - -	Я . - - .

### 2.1.13. Funksiyalar

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quydagilarni eslash kerak:

- ma'lumotlarni funksiyaga uzatishdan oldin faqat parametrлarni (global o'zgaruvchilar, ya'ni funksiyadan tashqarida e'lon qilingan o'zgaruvchilarni ishlatalish tavsiya etilmaydi) ishlatalish kerak;

- funksiyaning bajariluvchi ko'rsatmalari ichida funksiya qiyematlarini o'zlashtirish ko'rsatmalari, albatta, bo'lishi kerak;
- funksiya chaqirish ko'rsatmasida har bir haqiqiy parametr turi (o'zgarmaslar yoki o'zgaruvchi) funksiyani e'lon qilishda ko'rsatilgan mos rasmiy parametr bilan bir xil bo'lishi kerak;
- agar funksiyani e'lon qilish ko'rsatmasida rasmiy parametr ismi oldida *var so'zi* bo'lmasa, funksiyani chaqirish vaqtida rasmiy parametr sifatida o'zgarmas yoki mos turdag'i o'zgaruvchini ishlatsiz mumkin. Agar *var so'zi* ko'rsatilgan bo'lsa, rasmiy parametr sifatida faqat o'zgaruvchi bo'lishi mumkin.
- agar funksiya parametrlari natijani faqat funksiyani chaqirgan dasturga qaytarish uchun ishlatsa, funksiyani e'lon qilishda tegishli parametr ismi oldida *var so'zi* bo'lishi kerak.

**!** *Izoh:* masala shartlarida dasturchi kiritadigan sonlar yo'-g'on shrift bilan yozilgan.



## MASALALAR

150. Argument sifatida olingan ikkita butun sondan kattasini qaytaruvchi funksiyani yozing.
151. Ikkita butun sonni taqqoslovchi va taqqoslash natijasini  $>$ ,  $<$  yoki = belgilardan biri ko'rinishida qaytaruvchi funksiyani yozing.
152. Ikkita rezistordan iborat zanjir qarshiligini hisoblovchi funksiyani yozing. Qarshilik miqdorlari va ulash turlari (ketma-ket yoki parallel) funksiya parametrlari bo'ladi. Funksiya parametrlarning to'g'rilingini tekshirish kerak: agar ulash turi xato ko'rsatilgan bo'lsa, funksiya 1 ni qaytarishi kerak.
153.  $a^b$  qiymatni hisoblovchi funksiyani yozing,  $a$  va  $b$  sonlar ixtiyoriy kasr musbat sonlar bo'lishi mumkin.
154. Omonat bo'yicha daromadni hisoblovchi *Daromad* funksiyasini yozing. Omonat miqdori, yillik foiz ustama va omonat muddati (kunlar soni) funksiyaning boshlang'ich ma'lumotlari bo'ladi.
155. Agar argument sifatida funksiya tomonidan qabul qilingan belgi alfavitning o'nli harfi bo'lsa, *True* qiymatini qaytaruvchi *Unli* funksiyasini yozing.
156. Argument sifatida olingan satrdagi boshlang'ich bo'shliqlarni olib tashlovchi *LTrim* funksiyasini yozing.
157. Argument sifatida hosil qilingan o'zgartirilgan satrni yuqori registrga qaytaruvchi funksiyani yozing. E'tibor bering, agar bu funksiya *UpCase* (lotin imlosi uchun shunga o'xshash masala yechuvchi funksiya *Turbo Pascalda* shunday) deb atalsa, dastur-chining funksiyasi *Turbo Pascal* funksiyasi o'rnini bosadi.

158. Kvadrat tenglamani yechuvchi funksiyani yozing. Tenglama koeffitsientlari va ildizlari funksiya parametrlari bo'lishi kerak. Funksiya qiymati uni chaqiruvchi dasturga tenglama ildizi borligi haqidagi axborotlarni uzatish uchun ishlataladi: 2 — har xil ildizlar, 1 — bir xil ildizlar, 0 — tenglama yechimga ega emas. Bundan tashqari, funksiya boshlang'ich ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirishi kerak. Agar boshlang'ich ma'lumotlar xato bo'lsa, funksiya 1 ni qaytaradi.

159. Klaviaturadan butun ikki xonali musbat sonni kiritishni ta'minlovchi funksiyani yozing. Foydalanuvchi qandaydir bir klavishni bosishi bilan unga mos keluvchi belgi ekrannda, u faqat raqam bo'lgan holdagini, paydo bo'lishi kerak. Funksiya foydalanuvchiga kiritilgan sonni <*BackSpace*> klavishi yordamida tahrirlashga imkon berishi kerak. Agar foydalanuvchi hech bo'lmaganda bitta raqamni kiritgan bo'lsa, <*Enter*> klavishining bosilishi bilan funksiya ishini tugatish va foydalanuvchi kiritgan sonni uni chaqirgan protseduraga qaytarishi kerak.

160. Silindr hajmini hisoblovchi funksiyani yozing. Funksiya parametrlari silindr radiusi va balandligi.

161. Argument sifatida funksiya tomonidan qabul qilingan kirill imlosidagi harf undosh bo'lganda, *TRUE* qiymatini beruvchi *Undosh* funksiyasini yozing.

162. Darajaga ko'tarish funksiyasini yozing.

163. Sonning faktorialini hisoblovchi funksiya tuzing va uni

$$C_n^m = \frac{n!}{m!(n-m)!} \text{ ni hisoblashda ishlating.}$$

164. Sessiya natijalari bo'yicha guruuhlar o'rtacha balini topish dasturini tuzing. To'rt guruh bo'yicha baholar quyidagi matritsalarda keltirilgan: *A* (24,5), *B* (23,5), *C* (22,5), *D* (24,5).

165. *A* (10,12), *B* (15,10) va *C* (8,10) matritsalar berilgan. Ularning eng kichik elementlarini topish funksiyasini tuzing.

166. *A* (80), *B* (70), *C* (100) massivlarda keltirilgan tajriba natijalarining o'rta qiymatlarini funksiya tuzib, hisoblang.

167. *X* (5,6), *Y* (7,4), *Z* (5,7) berilgan massivlarning maksimal elementlarini topish funksiyasini tuzing. Natijalarni *P* (3) massivda keltiring.

168. *A* (40), *B* (30), *C* (60) butun sonli massiv elementlarining ichidan 3 ga bo'linadiganlarini funksiya tuzib, toping.

169.  $ax^2 + bx - 4 = 0$ ;  $y^2 - y + d = 0$ ;  $2z^2 + dz - 1 = 0$  kvadrat tenglamalarning katta ildizlarini hisoblash funksiyasini tuzing va katta ildizlarni *B* (3) massivga kriting.



### 2.1.14. Protseduralar

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quyidagilarni eslash kerak:

- protseduraga axborotni uzatish uchun undan tashqarida e'lon qilingan global o'zgaruvchilarni emas, balki parametrlarni ishlatalish kerak;
- protsedurani chaqirish ko'rsatmasidagi har bir haqiqiy parametr (o'zgarmaslar yoki o'zgaruvchi) turi funksiyani e'lon qilishda ko'rsatilgan tegishli rasmiy parametrga mos kelishi kerak;
- agar protsedurani e'lon qilish ko'rsatmasida rasmiy parametr ismi oldida *var so'zi* bo'lmasa, protsedurani chaqirish vaqtida rasmiy parametr sifatida o'zgarmas yoki mos turdag'i o'zgaruvchini ishlatalish mumkin. Agar *var so'zi* ko'rsatilgan bo'lsa, rasmiy parametr faqat o'zgaruvchi bo'lishi mumkin.
- agar protsedurani chaqirgan protsedura argumenti natijani dasturga qaytarish uchun qo'llanilsa, argument nomi oldiga *var so'zi* yoziladi.



*Izoh:* masala shartlarida dasturchi kiritadigan sonlar yozilishi bilan yozilgan.



## MASALALAR

170. Ekranga yulduzchalardan iborat satrni chiqaruvchi protsedurani yozing. Satr uzunligi (yulduzchalar soni) funksiya parametri bo'ladi.

171. Bir xil belgilardan iborat satrni chiqaruvchi protsedurani yozing. Satr uzunligi va belgi protsedura parametrlari bo'ladi.

172. Ekranga ramkani chiqaruvchi *Frame* protsedurasini yozing. Protsedura parametrlari sifatida ramaning yuqori chap burchak koordinatalari va uning o'chami uzatilishi kerak.

173. Berilgan *a* va *b* sonlardan kattasini *X*, kichigini *Y* o'zlashtiradigan dastur tuzing. Masala *min* va *max* protseduralarini o'z ichiga olsin.

174. 1 dan *n* gacha bo'lgan sonlarning kublari kvadratlari yig'indisini hisoblovchi protsedura tuzing.

175. *Tartib* dasturiga ikkita o'zgaruvchilarning qiymatlarini o'zar oalmashtiradigan protsedura tuzib kriting.



176. Chiziqli tenglamalar tizim ildizlarini protseduradan foydalib, Kramer formulasi yordamida toping.

177.  $P(X) = a_n X^n + a_{n-1} X^{n-1} + \dots + a_1 X + a_0$  ko'phadni protseduradan foydalaniб hisoblang.

178.  $X = X_0, X_1, \dots, X_n$  (bu yerda,  $X_{i+1} = X_i + h$  ( $i=1, 2, \dots, n$ )) sonlarning kvadrat va kublarini hisoblashda protseduradan foydalaning.

179.  $Z = X_i Y_j$  ( $i=1, 2, \dots, m; j=1, 2, \dots, n$ ) miqdorni hisoblash protsedurasini tuzing. Bu yerda  $X_i, Y_j$  mos ravishda  $X$  va  $Y$  butun sonli vektor elementlari.  $Z$  butun sonli matritsa elementlari.

180.  $X = \{X_1, X_2, X_3\}$  vektor uzunligini topish uchun protseduradan foydalaning. Uning hadlari mos ravishda  $A$  (4,4),  $B$  (3,3),  $C$  (2,2) matritsalar hadlarining yig'indisiga teng.



### 2.1.15. Fayllar

Bu bo'lim masalalarini yechishga o'tishdan oldin quyidagilarni eslash kerak:

- natijalarni faylga chiqaruvchi yoki boshlang'ich ma'lumotlarni fayldan o'quvchi dasturda text turidagi faylli o'zgaruvchi e'lon qilingan bo'lishi kerak;
- aniq faylga erishish uchun faylli o'zgaruvchini bu fayl bilan bog'lash kerak (bu *assign* ko'rsatmasi yordamida bajariladi);
- fayldan foydalanish mumkin bo'lishi uchun u ochiq bo'lishi kerak (*reset* — o'qish uchun, *rewrite* — yozish uchun, *append* — qo'shimcha kiritish uchun);
- fayllar bilan ishlashda xatoliklar bo'lishi mumkin, masalan, dastur, bo'Imagan faylni ochishga uringan paytda. Shuning uchun xatoliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan har bir ko'rsatmadan keyin, *IOResult* funksiyasini qo'llab, fayl bilan ishni tugatish kodini tekshirish kerak: dastur fayl bilan bajariladigan ish natijasini nazorat qila olishi uchun, uning matniga *{SI --}* direktivani kiritish kerak;
- faylga yozishni *write* va *writeln* ko'rsatmalar, o'qishni *read* va *readln* ko'rsatmalar bajaradi, bunda bu ko'rsatmalarning birinchi parametri sifatida fayl o'zgaruvchisini ko'rsatish kerak;
- fayl bilan ish tugagandan keyin uni, albatta, *close* ko'rsatmasi bilan yopish kerak;
- dasturda o'zgaruvchisining turi *text* deb e'lon qilingan va shu dastur tomonidan yaratilgan faylni matn muharriri yordamida ko'rib chiqish mumkin.



*Izoh:* masala shartlarida dasturchi kiritadigan sonlar yo'g'on shrift bilan yozilgan.



## MASALALAR

181. Kompyuterning almashtirish diskida (A:) *numbers.txt* faylini hosil qiluvchi va unga foydalanuvchi tomonidan kiritilgan 5 ta butun sonni yozuvchi dastur tuzing. *Norton Commander*ga kiritilgan matn muharriri yordamida yaratilgan faylni ko'ring, har bir son alohida satrda joylashganligiga ishonch hosil qiling.

182. *a:numbers.txt* fayliga foydalanuvchi tomonidan kiritilgan 5 ta butun sonni yozuvchi dasturni yozing. Matn muharriri yordamida faylda 10 ta son yotganligini tekshiring.

183. *a:numbers.txt* fayl tarkibini ekranga chiqaruvchi dasturni yozing.

184. *a:numbers.txt* faylida joylashgan o'rta arifmetik qiymatni hisoblovchi dasturni yozing.

185. Matn fayllarini, masalan, *Turbo Pascal* boshlang'ich dasturlar fayllarini, ko'zdan kechirishga (ekranga fayl tarkibini chiqaradi) imkon beradigan dastur yozing. Ko'zdan kechiriladigan fayl ismi dastur ishlash vaqtida kiritilishi kerak. Tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi quyida keltirilgan:

Matn faylini ko'zdan kechirish.

Faylning to'la ismini kriting va <*Enter*> klavishini bosing → *c:\tp\pas\numb.pas*

186. A: diskda joylashgan *phone.txt* fayliga o'rtog'ingiz ismi-sharifi va telefon raqamini yozuvchi dasturni yozing. Agar fayl diskda bo'lmasa, dastur uni yaratishi kerak. Faylda ma'lumotlarning har bir elementi (ismi-sharifi, telefon raqam) alohida satrda bo'lishi kerak. Dasturning ishslash vaqtida tavsiya etiladigan ekran ko'rinishi quyida keltirilgan.

Telefon ma'lumotnomasiga qo'shimcha

Familiyasi →

Ismi →

Telefon →

Axborot qo'shildi.

Ishni tugatish uchun <*Enter*>ni bosing.

187. Telefon ma'lumotnomasida (*a: phone.txt*) ma'lumotlarni topishga imkon beruvchi dasturni yozing. Dastur kishi familiyasi ni so'rashi va uning telefon raqamini chiqarishi kerak. Agar ma'lumotnomada bir xil familiyalar bo'lsa, dastur shunday familiyaga ega hamma kishilarning ro'yxatini chiqarishi kerak. Dasturning ishslash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi quyida keltirilgan.

Telefon ma'lumotnomasidan izlash.

Familiyani kriting va <Enter>ni bosing. Dastur bilan ishni tugatish uchun taklifdan keyin darrov <Enter>ni bosing.

Familiyasi → Yusupov.

Ma'lumotnomada Yusupov haqida axborot yo'q.

→ Isayev.

Isayev Hamro 578 – 12 – 45

Isayev Hasan 224 – 34 – 02

188. Testdan o'tkazish universal dasturini yozing. Test savollari ketma-ketligi va javob variantlari matn faylida bo'lishi kerak. Dastur bu fayl ismini uni ishga tushiruvchi buyruq satridan olishi kerak. Test savollari soni cheklanmagan. Lekin quyidagi cheklklarni kiritish taklif etiladi: savol matni va muqobil javoblar ekranning bitta satridan ortiq joyni egallamasligi kerak.

Dastur baholarni quyidagi qoidaga ko'ra qo'yish kerak. Hamma javoblar to'g'ri bo'lsa — a'lo, 80 % dan kam bo'lmagan savollarga to'g'ri javob berilsa — yaxshi, 60 % dan kam bo'lmagan to'g'ri javoblarga qoniqarli, 60 % dan kam to'g'ri javoblar uchun yomon.

Quyida test savollari faylining tavsiya etiladigan tasnifi keltiriladi ( $N - i$  — savolga muqobil javoblar soni;  $K$  — to'g'ri javob raqami), test fayliga misol va ekranning dastur ishlayotgan vaqtidagi ko'rinishi quyida keltirilgan.

Savol,

$N_1 M_1$

Javob

...

Javob

Savol,

$N_2 M_2$

Javob

...

Javob

Savol,

$N_k M_k$

Javob

...

Javob

*div nimani bildiradi?*

3.2.

bo'lishni

butun bo'linmani  
bo'lishdan hosil bo'lgan qoldiqni  
Paskal tili asoschisi kim?

2.2.

Norbert Viner

Niklas Virt

Quyidagi mantiqiy amallardan qaysi biri birinchi bo'lib bajariladi:

3.2.

*and*

*not*

*or*

Hozir Sizga test taklif etiladi. Har bir savolga bir nechta javoblar variانتи beriladi. Siz to'g'ri javob raqamini kiritishingiz va <Enter>ni bosishingiz kerak.

*div* nimani bildiradi?

1. Bo'lishni.
2. Butun bo'linmani.
3. Bo'lishda hosil bo'lgan qoldiqni.

→ 2

Paskal tili asoschisi kim?

1. Norbert Viner.
2. Niklas Virt.

→ 2

Quyidagi mantiqiy amallardan qaysi biri birinchi bo'lib bajariladi?

1. *and*.
2. *not*.
3. *or*.

→ 2

Bahongiz: «A'lo!».

Dastur ishini yakunlash uchun <Enter>ni bosing.

189. Duymlardan millimetrlarga o'tish jadvalini, foydalanuvchi xohishiga ko'ra, ekranga, printerga yoki faylga chiqarish dasturini yozing. Quyida dasturning ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ecran ko'rinishi keltirilgan.

\*\*\* Duymlardan millimetrlarga o'tish jadvali \*\*\*

Natija chiqariladi:

1 — ekranga

2 – printerga

3 – faylga

1 dan 3 gacha sonlarni kriting va <Enter>ni bosing.

Sizning tanlovingiz → 2

Duymlar	Millimetrlar
0.5	12.7
1.0	25.4
1.5	38.1
2.0	50.8
2.5	63.5

Duymlar	Millimetrlar
3.0	76.2
3.5	88.9
4.0	101.6
4.5	114.3
5.0	127.0

190. *a:\phone.txt* fayliga bir seansda bir nechta odamlar to‘g‘-risida axborot kiritish dasturini yozing.


191. Telefon ma'lumotnomasiga qo'shimcha kiritadigan, ma'lumotnomada izlash ishlarini birlashtiradigan dastur tuzing.



### 2.1.16. Rekursiya

Bu bo‘lim masalalarini yechishga o‘tishdan oldin quyidagi larni eslash kerak:

- o‘z-o‘zini chaqirib oluvchi protsedura va funksiya rekursiv deyiladi;
- jarayonni tugatish uchun rekursiv funksiya (protsedura) algoritmida funksiyaning (protseduraning) bevosita tugashini ta’minlovchi yo‘nalish, albatta, bo‘lishi kerak.




1-rasm.

192. Faktorialni hisoblovchi funksiyani va uning ishlashini tekshiruvchi dasturni yozing.

193. 1-rasmda keltirilgan bezakni ekranga chiqaruvchi dasturni yozing.

194. Chizmasi keltirilgan elektr zanjir qarshiligini hisoblash dasturini yozing. Qarshiliklar miqdori va zanjir tartibi ( $R_2$  qarshiliklar soni) dastur ishlashi vaqtida kiritilishi kerak (1-chizma).



I-chizma.

195. Yuqorida keltirilgan elektr zanjir chizmasini ekranga chizuvchi dasturni yozing. Zanjir tartibi dastur ishlash vaqtida kiritilishi kerak.

196. Yig'indini  $X$  ning haqiqiy qiymatlarida hisoblang:

$$S = \sum_{n=1}^k \frac{X^{2n}}{(2n)}.$$

197. Yig'indini  $X$  ning haqiqiy qiymatlarida hisoblang:

$$S = \sum_{n=1}^k \frac{X^{4n+1}}{4n+1}.$$

198. Yig'indini  $X$  ning haqiqiy qiymatlarida hisoblang:

$$S = \sum_{n=1}^k (-1)^n \frac{\cos nx}{n^2}.$$

199. Yig'indini  $X$  ning haqiqiy qiymatlarida hisoblang:

$$S = \sum_{n=1}^k \frac{n^2 + 1}{n!} \left(\frac{X}{2}\right)^n.$$

200.  $y=e^x$  funksiyaning qiymatini argumentning quyidagi o'zgarishlar sohasining  $1 \leq X \leq 2$  har bir nuqtasida qatorga yoyib ( $n=15$ ) hisoblang. Qator yig'indisining umumiy hadi:

$$S = \sum_{n=1}^k \frac{X^n}{n!}.$$

## 2.2. YUQORI MURAKKABLIKDAGI MASALALAR

Bu masalalarni berishdan maqsad qobiliyatli talabalarni dasturlash bilan shug'ullanishga qiziqtirish, ularga o'z ustlarida ishlashlari uchun ma'lumot berish — ularning ko'nikma, mahorat, qobiliyatları, kasb malakasini oshirish.

201. «Ko'ndalang diagonal».  $A(m,n)$  massivning, indekslari ayirmasi berilgan  $K$  soniga ( $K$  — manfiy son ham bo'lishi mumkin) teng bo'lgan ( $i=j=k$ ), elementlari yig'indisini toping.

202. «Kvadratchalar». Har bir elementi 0,1,5 yoki 11 ga teng  $A(m, m)$  massiv berilgan. Har birida elementlari har xil bo'lgan to'rtliklar  $A(i, j)$ ,  $A(i+1, j)$ ,  $A(i, j+1)$ ,  $A(i+1, j+1)$  miqdorini toping.

203. «Sanoq sistemalari».  $M(9)$  massivda qandaydir natural sonning  $I$  — sanoq tizimida raqamlari yozilgan. ( $M(I)$  — birlar xonasi va h.k.). Birlar xonasidan boshlab turib',  $J$  — sanoq tizimida bu son raqamlarini chop eting.  $I, J$  sonlar 10 dan oshmaydi.

204. «Kalendar». Kun, oy, yilni bildiruvchi uchta  $a, b, c$  sonlar berilgan. Shu kunning yil boshidan hisoblangandagi  $n$ -tartib raqamini toping.

**Ko'rsatma:** tartib raqami 400 ga bo'linadigan, shuningdek, tartib raqami 4 ga bo'linib, 100 ga bo'linmaydigan yillar kabisa yili hisoblanadi.

205. «So'zning matnga kiritilishi». Butun sonli  $X(n)$  va  $Y(k)$  2 ta massivlar berilgan.  $X_{i+1}=Y_1, X_{i+2}=Y_2, \dots, X_{i+k}=Y_k$  shartlarni qanoatlantiruvchi va  $X_{i+1}, X_{i+2}, \dots, X_{i+k}$ , ketma-ket keluvchi « $k$ » ta elementlarni birinchi massivdan tanlab olish mumkinmi? Bu masalani yechuvchi va «Ha» yoki «Yo'q» javoblarni beruvchi dasturni yozing.

206. «Nollar seriyasi».  $A(n)$  butun qiymatli massiv berilgan. Massivning elementlari nolga teng va ketma-ket keluvchi eng uzun ketma-ketligi uzunligini toping.

        write ('Chiqarish uchun fayl ismini bering →');
        readln (fname);
      end;
  end;
  assign (f,fname);
  rewrite (f);
  writeln (f, '-----');
  writeln (f, ' Duymlar Millimetrlar');
  writeln (f, '-----');
  d:= 0.5;
  while d < 10 do
    begin
      m:=25.4*d;           {1 duym — 25,4 mm}
      writeln (f,d:6:1, m:10:1);
```

```

d:= d+0.5;
end;
writeln (f,'-----');
close (f);
if dest = 3
    then writeln ('Jadval' ,fname, 'faylida yozilgan');
writeln ('Dastur ishini tugatish uchun <Enter>ni bosing');
readln,
end.

```



### 3.1.13. Rekursiyali dasturlar

#### 192-masala

{«Faktorial» rekursiv funksiyasi}

```

function factorial (k:integer):integer;
begin
    if k = 1
        then factorial:= 1
        else factorial:= k *factorial (k-1);
    end;
var
    n: integer; {faktoriali hisoblanishi kerak bo'lgan son}
    f: integer; {n sonining faktoriali}
begin
    writeln ('Faktorialni hisoblash,');
    writeln ('Faktoriali hisoblanishi kerak bo'lgan sonni
              kiriting');
    write ('->');
    readln (n);
    f:= factorial (n);
    writeln (n,'ning faktoriali', f, 'ga teng');
    readln;
end.

```



#### 193-masala

{Ekranga bezaklar chiqaradi}

```

uses Graph, Crt;
{Bezak elementini chizadi}
procedure Elem (x,y, r,p: integer);
{x, y, r – bezak asosiy elementi markazining
 koordinatalari va radiusi – bezak tartibi}

```



```

begin
  if p > = 0 then
    begin
      Circle (x, y, r); {Radiusi r ga teng, koordinata
                           markazi (x,y) bo'lgan aylana
                           chizadi}
      Delay (100); {Dastur bajarilishini 100 milli-
                      sekund to'xtatib turadi}
      ELEM (x+r, y, Round (r/2), p-1);
      ELEM (x, y-r, Round (r/2), p-1);
      ELEM (x-r, y, Round (r/2), p-1);
      ELEM (x, y+r, Round (r/2), p-1);
    end;
  end;
var
  grDriver:integer; {drayver}
  grMode:integer; {grafik rejim}
  grPath:string; {drayver fayliga yo'l}
  ErrCode:integer; {grafik rejim xatolik kodi}
begin
  grDriver:=VGA; {drayver}
  grMode:=VGAHi; {grafik rejim}
  grPath:= 'e:\tp\bg'; {drayver joylashgan adres}
  InitGraph (grDriver, grMode, grPath); {Grafik rejimni
                                             initsializatsiya qildi. Parametrlar videosistema
                                             drayverini, ish rejimini, adresni bildiradi}
  ErrCode := GraphResult; {GraphResult — oxirgi bajarilgan grafik operatsiya natijasini qaytaruvchi
                           grafik rejim funksiyasi}
  if ErrCode <> grOK then
    begin
      writeln (' Grafik rejim xatosini initsializatsiyalash.')
      writeln ('Ishni tugatish uchun <Enter>ni bosing');
      readln;
      Halt (1);
    end;
  {Asosiy dastur}
  ELEM (320, 240, 60, 3); {3-tartibli bezak chizamiz}
  OutText ('Dastur ishini tugatish uchun <Enter>ni bosing');
  readln;
end.

```



### 194-masala

*{Rekursiya mexanizmidan foydalanib, n-bo'g'inli elektr zanjir qarshiligini hisoblash}*

*var*

```

r1,r2,r3: real; {zanjir tashkil topgan qarshiliklar kattaligi}
n: integer; {zanjir bo'g'inlari soni (tartibi)}
rz: real; {zanjir qarshiligi}
{n- tartibli zanjir qarshiligi qiymati}
function Zanj (n: integer): real;
begin
    if n= 1
        then Zanj:=R1+R2+R3
    else begin
        rz:= Zanj (n-1);
        Zanj:=R2* rz /(R2+ rz);
    end;
end;
{asosiy protsedura}
begin
    writeln ('Elektr zanjir qarshiligini hisoblash.');
    writeln ('Qarshilik kattaliklarini kriting (Om) :');
    write (r1 →');
    readln (r1) ;
    write (r2 →');
    readln (r2) ;
    write (r3 →');
    readln (r3) ;
    write ('Zanjir tartibi →');
    readln (n);
    writeln ('Zanjir qarshiliqi:', Zanj(n):6:2, 'Om');
    {qarshiliklar kattaligi Zanj protsedurasiga r1, r2 va r3 global
o'zgaruvchilar orqali uzatiladi}
    readln;
end.

```



### 195-masala

*{Murakkab elektr zanjir chizmasini chizadi}*

*{Zanjir chizmasini chizishda rekursiyadan foydalaniladi}*

*Uses Graph;*

*const*

```

{tur qadami}
dx = 7;
dy = 7;
var
  grDriver:integer;
  grMode:integer;
  grPath:string;
  ErrCode:integer;
  x,y: integer;
  k: integer; {zanjir tartibi}
{k-tartibli zanjir chizmasini chiqaradi}
Procedure Zanj (k: integer; x,y: integer);
begin
  SetColor (Green);
  Line (x, y, x+2*dx, y);
  Rectangle (x+2*dx, y-dy, x+6*dx, y+dy);
  Line (x+6*dx, y, x+8*dx, y);
  OuttextXY (x+3*dx, y-3*dy, 'R1');
  SetColor (Yellow);
  Line (x+8*dx, y, x+8*dx, y+2*dy);
  Rectangle (x+7*dx, y+2*dy, x+9*dx, y+6*dy);
  Line (x+8*dx, y+6*dy, x+8*dx, y+8*dy);
  OuttextXY (x+10*dx, y+2*dy, 'R2');
  SetColor (LightGray);
  Line (x, y+8*dy, x+2*dx, y+8*dy);
  Rectangle (x+2*dx, y+7*dy, x+6*dx, y+9*dy);
  Line (x+6*dx, y+8*dy, x+8*dx, y+8*dy);
  OuttextXY (x+3*dx, y+5*dy, 'R3');
  if k>1 then Cep(k-1,x+8*dx,y);
end;
begin
  grDriver:=VGA;           {drayver}
  grMode:=VGAHi;          {grafik rejim}
  grPath: ='e:\tp\bgi';   {drayver fayliga yo'lli}
  InitGraph (grDriver, grMode, grPath); {grafik rejimni
  initsializatsiyalash, parametrlar videosistema drayverini,
  ish rejimini, adresni bildiradi}
  ErrCode:=GraphResult; {oxirgi bajarilgan grafik operatsiya
  natijasini qaytaruvchi grafik rejim funksiyasi}
  if ErrCode <> grOK then

```

```

begin
  writeln ('Grafik rejim xatosining initsializatsiyasi.');
  writeln ('Ishni tugatish uchun <Enter>ni bosing');
  readln;
  Halt (1)
end;
OutTextXY (10,10, 'Zanjir tartibini kriting va <Enter>ni
              bosing');
readln (k);
Zanj (k,10,50);
readln;
CloseGraph;
end.

```

### 3.2. YUQORI MURAKKABLIKDAGI MASALALAR ALGORITMLARI VA DASTURLARI

Bu bo'limda dasturdan avval masala yechimining algoritmlari keltiriladi. Bu ba'zan, faqat algoritmik tilda yozilishi qolgan, tu-gallangan fikr, ba'zi hollarda esa yechim mulohazasi, boshqa hollarda esa dasturni tushuntiruvchi izoh bo'ladi. Lekin hamma hollarda ham dasturni o'qish yengillashtirilgan, o'zlashtirish kerak bo'lgan usullar bayon etiladi. Amallar aniqligi, odatda, doimiy ko'paytuvchi aniqlida ko'rsatilgan.



*201-masala*  
*Algoritm. «Ko'ndalang diagonal»*

Ikkita son aniqlaymiz:  $P=\max(1, l-k)$  va  $g=\min(n, m-k)$ . Shunda izlanayotgan miqdor hamma  $j=p, p+1, \dots, g$  lar bo'yicha  $A[k+j, j]$ , elementlar yig'indisiga teng bo'ladi (agar  $j$  ning bunday qiymatlari bo'lmasa, ya'ni  $p > g$  bolsa, u nolga teng).  $A$  massivning hamma  $m * n$  elementlari qaraladigan yechimni qoniqarli emas, deb qarashi kerak.

#### Dastur

```

Program Ko'ndalang_diagonal;
const NN=10;
      MM=10;
var
  m,n, j,k,p,g,s :integer;
  A : array [1..MM,1..NN] of integer;

```

```

begin
writeln ('M,N,K:=');
readln (m,n,k);
for p:=1 to m do
    for j:=1 to n do
        begin
            writeln ('A [',P, ',' ,j, ']:=');
            readln (A[p,j]);
        end;
        if k>0 then p:=1 else p:=l-k;
        if k+n<m then g:=n
        else
            g:=m-k;
            s:=0;
        for j:=p to g do s:=s+A[k+j,j];
        writeln(s);
    end.
end.

```



### 202-masala Algoritm. «Kvadratchalar»

Kvadratchaning burchaklaridagi hamma sonlar har xil bo'lsa, ularning yig'indisi  $0+1+5+1=17$ . Lekin buning aksi ham to'g'ri ekanligini ta'kidlash mumkin. Bu dasturni soddalashtiradi.

### Dastur

```

Program Kvadratchalar;
const MM=50;
var
    i,j,m,S :integer;
    A : array [1..MM,1..MM] of integer;
begin
writeln ('M:=');
readln (m);
for i:=1 to m do
    for j:=1 to m do
        begin
            writeln ('A [',i, ',' ,j, ']:=');
            readln (A[i,j]);
        end;
    S:=0;
end.

```

```

for i:=1 to m-1 do
    for j:=1 to m-1 do
        if (A[i,j]+ A[i,j+1]+ A[i+1,j]+A[i+1,j+1]=R )
        then S:=S+1;
    writeln (S);
end.

```



### 203-masala

*Algoritm. «Sanoq tizimlari»*

Berilgan son miqdorini Gorner chizmasi bo'yicha topish kerak:  
 $N = ((\dots(M[9]*i + M[8])*i + \dots + M[2])*i + M[1])$

$N$ , butun sonlar uchun, mumkin bo'lgan maksimal miqdordan oshmaydi, deb faraz qilinadi.  $N$  sonlar razryadlari (xonalari)  $j$ -tizimda  $N$  ni  $j$  ga butun bo'lishdagi qoldiqlar sifatida hosil qilinadi:  
 $k=N/j : M=N - K*j : N=K$  va hokazo.

$M$  ning qoldiqlarini masala shartiga ko'ra, eslab qolish va chop etish shart emas.

### Dastur

```

Program Sanoq_sistemalar;
var
    i, j, k : integer;
    n : real;
    m : array [1..9] of integer;
begin
    writeln ('i, j:=');
    readln (i,j);
    for k:=9 downto 1 do
        begin
            write ('M[',k,']:=');
            readln (m[k]);
        end;
    writeln;
    n:=0
    for k:=9 downto 1 do n := n*i+M[k];
    writeln (trunc(n));
    repeat
        write (trunc (n), mod j, );
        n:= trunc(n) div j;
    until n=0;
    writeln
end.

```



## 204-masala

*Algoritm. «Kalendar»*

Kabisa bo'limgan yil oylarida kunlarning son bo'yicha ***M[1..11]*** jadvalini hosil qilish qulay. «*m*» ni «*n*»ga bo'lishdagi qoldiqni aniqlab beruvchi ***MOD (m,n)*** yoki unga o'xshash funksiyani ham ishlatalish mumkin.

### Dastur

*Program Kalendar;*

*var*

```

a,b,c,i,j : integer;
M : array [1..11] of integer;
function D (x:integer) : boolean;
begin
    D:=(c mod x)=0;
end;
begin
    writeln ('a,b,c:=');
    readln (a,b,c);
    writeln;
    for i:=1 to 11 do
        case i of
            1,3,5,7,8,10: M[i]:=31;
            4,6,9,11: M[i]:=30;
            2: M[i]:=28;
        end;
    j:=a;
    for i:=1 to b-1 do j:=j+m[i];
    if (b>2) and (D(4) and not D(100) or D(400)) then j:=j+1;
    writeln (j);
end.

```



## 205-masala

*Algoritm. «So'zning matnga kiritilishi»*

Dastur oson o'qiladi. Izohga hojat yo'q.

### Dastur

*Program So'zni\_matnga\_kiritish*

*const nn=100; kk=50;*

*var*

```

i,n,j,k : integer;
ff : boolean;
x : array [1..nn] of integer;
y : array [1..kk] of integer;
begin
  writeln ('k,n=');
  readln(k,n);
  writeln;
  writeln ('massiv x:');
  for j:=1 to n do readln(x[i]);
  writeln;
  writeln ('massiv y:');
  for j:=1 to k do readln(y[j]);
  writeln;
  i:=0;
  ff:=true;
  while (i<=n-k) and ff do
    begin
      j:=1;
      while j<=k and ff do
        if x[i+j]<>y[j] then ff:=false
        else j:=j+1;
      if ff then
        begin
          writeln ('ha', i+1);
          ff:=false;
        end
      else
        begin
          ff:= true;
          i:=i+1;
        end;
    end;
    if ff then writeln ('yo'q);
end.

```



**206-masala**  
*Algoritm. «Nollar seriyasi»*  
 Dastur oddiy. Izohga hojat yo'q.

### Dastur

*Program Nollar\_seriyasi*  
*const nn=100;*

```

var
  i,n,t,max : integer;
  a : array [1..nn] of real;
begin
  writeln ('n=');
  readln (n);
  for i:=1 to n do readln(a[i]);
  t:=0; max:=0;
  for i:=1 to n do
    begin
      if a[i]<>0 then
        begin
          if (max< i) then max:=t;
          t:=0;
        end;
      else t:=t+1;
    end;
    if max< then max:=t;
  writeln;
  writeln (max);
end.

```



### 207-masala

*Algoritm. «Egar nuqta»*

Agar  $mi$   $i$  — satrdagi  $a_i$  elementlarning eng kichik qiymati,  $Mj$  esa  $j$  ustundagi  $a_j$  elementlarning eng katta qiymati bo'lsa,  $mi \leq a_i \leq Mj$ , bo'ladi.

Bu bir nechta mulohazalar qilishga imkon beradi:

a) ixtiyoriy satrning minimumi ixtiyoriy ustun maksimumidan katta emas, ya'ni hamma vaqt  $mi \leq Mj$  shart o'rinnli;

b) agar qandaydir  $i$  va  $j$  uchun  $mi=Mj$  tenglik bajarilsa, minimumlarning eng kattasi maksimumlarning eng kichigi bilan mos keladi,  $i$  satrning  $j$  ustun bilan kesishishida esa egar nuqta:

$mi=a_i=Mj$  yotadi; (\*)

d) agar  $a_i$  — egar nuqta bo'lsa, uning uchun (\*) shart bajariladi va, demak, minimumlarning maksimumi, maksimumlarning minimumiga teng bo'ladi.

Aytiglanlarni dasturga joriy etish kerak. Har bir satrda minimum  $mi$  izlanadi, bu minimumlar ichidan maksimum —  $Ma$  tanlanadi

va u joylashgan  $i$ , satr eslab qolinadi. Agar minimum « $Ma$ » ning joriy qiymatidan kichik bo'lib qolsa, satrda minimumni izlashni to'xtatish kerak.

Keyin, maksimal element topilgan « $Ma$ » qiymatga teng ustun izlanadi, agar bunday ustun bo'lmasa, egar nuqta ham yo'q. Amalda dasturda, agar ustunda  $Ma$  elementdan katta element bo'lmasa, a) punktga ko'ra, ustun, izlanayotgan ustun ekanligi ko'rsatiladi.

Agar dasturda bu yerda keltirilgan mulohazalardan foydalanilmasa, u ancha sekin ishlaydigan bo'ladi.

## Dastur

*Program Egar\_nuqta.*

```
const nn=20; mm=20;
label 1,2;
var
  i,n,j,m,io,mi,ma :integer;
  a : array [1..mm,1..nn] of integer;
begin
  writeln ('m,n=');
  readln (m,n);
  for i:=1 to m do
    begin
      writeln ('a[',i,',',j,']=');
      readln (a[i,j]);
    end;
  for i:=1 to m do
    begin
      if (i>1) and (a[i,j] <=ma) then goto 1;
      if (j=1) or (a[i,j] < mi) then mi:=a[i,j];
    1 : end;
    ma:=mi; io:=i;
    for i:=1 to n do
      begin
        for j:=1 to m do if a[i,j]> ma goto 2;
        writeln (io:j:3); exit;
      2: end;
      writeln(0);
    end.
```



## 208-masala

### Algoritim. «Kasrni qisqartirish»

Yevklid algoritmini dasturlash mumkin. Unga ko'ra  $m$  va  $n$  sonlarning eng katta umumiy bo'luchisini topish va unga qisqartirish kerak.

Yevklid algoritmi mohiyatini tushuntiramiz,  $m_1 \leq m_2$  bo'lsin,  $(m_1, m_2)$  juftlikning ixtiyoriy umumiy bo'luchisi  $(m_2, m_1 - m_2)$  juftlikning, demak,  $(m_2, m_3)$  juftlikning ham umumiy bo'luchisi bo'ladi, bu yerda,

$$m_3 = m_1 - (m_1/m_2) * m_2$$

$m_1$  ni  $m_2$  ga bo'lishda qoldiq bo'ladi, shuning uchun  $m_3 < m_2$  oldindan ma'lum. Aksi ham to'g'ri:  $(m_2, m_3)$  juftlikning har qanday umumiy bo'luchisi (u.b.)  $(m_1, m_2)$  juftlikning ham umumiy bo'luchisi bo'ladi. Shuning uchun

$$u.b. (m_1, m_2) = u.b. (m_2, m_3)$$

$u.b. (m_1, m_2)$  funksiyada argumentni uni kichigiga bo'lganligi qoldig'i bilan ketma-ket almashtira borib,

$u.b. (m_1, m_2) = u.b. (m_2, m_3) = \dots = u.b. (m_k, 0) = m_k$  ketma-ketlik hosil qilinadi, unda  $m_1 \geq m_2 > \dots > m_k > 0$  va  $m_k$  boshlang'ich  $m_1, m_2$  sonlarning eng katta umumiy bo'luchisi bo'ladi.

Agar  $n$  katta son bo'lmasa,  $j$ -eng kichik qiymatli  $i/j = m / n$  kasrni tanlab olish mumkin. U, albatta, qisqarmaydi. Faqat kasrlar tengligini nisbatlar tengligi bilan emas, ko'paytmalar tengligi bilan tekshirish kerak:

$$i * n = j * m$$

Bu taklif etilgan dasturga olib keladi.

### Dastur

```
Program Kasrni_qisqartirish;
label 1;
var
  i,n,j,m :integer;
begin
  readln (m,n);
  writeln ('m=',m,'n=',n);
  for j:=1 to n do
    begin
      i:=j*m div n;
      if i*n=j*m then goto 1;
```

```
    end;  
1: writeln ('m/n',i,'/j);  
end.
```



## 209-masala

### Algoritm. «Massivlarning qo'shilishi»

Bu muhim masala  $m+n$  amalda bajarilishi kerak.  $A$  va  $B$  dan birinchi elementlarini olamiz, ulardan kichigini  $C$  massivga yozamiz va uni o'z massividan navbatdagisi bilan almashtiramiz. Yana ikkitadan kichigini tanlab, keyin  $C$  ga kiritamiz va hokazo, har bir taqqoslashdan keyin  $C$  ga element qo'shiladi, demak, taqqoslash  $m+n$  dan kichik bo'ladi. Faqat dasturning, massivlardan bittasi tamom bo'lganidan keyin ham, to'g'ri ishlashini ta'minlash kerak.

#### Dastur

```
Program Massivlar_qo'shilishi;  
const MM=100;  
      NN=100;  
      MN=200;  
  
var  
    m,n,i,j,k :integer;  
    A : array [1..MM] of integer;  
    B : array [1..NN] of integer;  
    C : array [1..MN] of integer;  
  
begin  
  writeln ('M,N:=');  
  readln (m,n);  
  writeln ('array A:=');  
  for i:=1 to m do readln(A[i]);  
  writeln ('array B:=');  
  for j:=1 to n do readln(B[j]);  
  i:=1; j:=1;  
  for k:=1 to m+n do  
  begin  
    if ((i>m) or (A[i]>B[j])) and not  
    (j>n) then  
    begin  
      c[k]:=B[j]; j:=j+1;  
    end;  
    else
```

```

begin
  c[k]:=A[i]; i:=i+1;
end;
end;
writeln ('array C:=');
for k:=1 to m+n do writeln (c[k]);

```

end.



### 210-masala Algoritm. «Moda»

Boshlang'ich massivni tartibga keltirish, shundan keyin bir qarashda qiymatlar chastotasini — eng ko'p uchraydigan qiymatni hisoblash kerak. Chastotani yozish uchun massiv tashkil etishga hojat yo'q, tez uchraydiganlar nomzodini eslab qolish va uning chastotasini qaralgan elementning topilgan chastotasi bilan taqqoslash yetarli.

Agar qandaydir holga ko'ra, tartiblashtirishni bajarmaslik kerak bo'lsa, quyidagicha yo'l tutiladi: navbatdagi  $a[i]$  (boshida bu  $a[1]$  element) undan keyin keladigan element bilan taqqoslanadi. Bunda, birinchidan,  $a[i]$  qiymatning paydo bo'lish chasteotasi hisoblanadi, ikkinchidan,  $a[i]$  ga teng bo'lgan  $a[j]$  elementlari ketma-ket  $a[i+1], a[i+2] \dots$  elementlari bilan almashtiriladi.  $A$  massiv oxirigacha qarab chiqilib,  $a[i]$  element chastotasi aniqlanganidan keyin  $a[i+k]$  element chastotasi topiladi,  $a[i]$  va  $a[i+k]$  o'rta sidagi elementlar o'tkazib yuboriladi. Bu algoritm samarali ko'rindi va agar massivda har xil elementlar bo'lsa,  $n*n$  ta amal bajarilishi kerak bo'ladi. Bu fikrlar taklif etilgan dasturda amalga oshirilgan.

### Dastur

```

Program Moda;
const NN=100;
var
  n,m,am,i, j,k : integer;
  A : array [1..NN] of integer;
begin
  writeln ('n:=');
  readln (n);
  for i:=1 to n do readln(a[i]);
  writeln;

```

```

m:=0; i:=1;
while i+m<=n do
begin
    k:=1;
    for j:=i+1 to n do
        if a[j]=a[i] then
begin
    a[j]:=a[i+k]; k:=k+1;
end;
if m<k then
begin
    am:=a[i]; m:=k;
end;
i:=i+k;
end;
writeln (am);
end.

```



### 211-masala Algoritm. «Markaziy qishloq»

Bu masalani quyidagicha bayon etamiz: A massivning har bir  $i$  satrida  $a[i,j]$  ( $j \neq i$ ) sonlari ichidan eng kattasi tanlanadi va u  $a[i,j]$  ga qo'shiladi. Tegishli yig'indini eng kichik qiluvchi  $i$  topilishi kerak. Masalaning bunday qo'yilishida uning standart yechimga egaligiga yo'l qo'yiladi.

### Dastur

```

Program Markaziy_qishloq;
const KK=20;
var
    i,j,k,i1,s,t :integer;
    A : array [1..KK,1..KK] of real;
begin
    writeln ('k:=');
    readln (k);
    for i:=1 to k do
        for j:=1 to k do
begin
    begin
        writeln('a[',i,',',j,']=');
        readln(a[i,j]);
    end;
end;

```



```

for i:=1 to k do
begin
    s:=0;
    for j:=1 to k do
        if (j<>) and (s< a[i,j]) then s:=a[i,j];
        s:=s+a[i,j];
        if (i=1) or (s<t) then
            begin
                i1:=i;
                t:=s;
            end;
    end;
    writeln (i1);
end.

```



### 212-masala Algoritm. «Tartib indekslari»

Hammaidan osoni «izlanayotgan tartib indekslari» uchun qo'shimcha  $I[1:N]$  massiv hosil qilish, avval uni  $1, 2, \dots, N$  sonlari bilan to'ldirish, keyin berilgan  $A$  massivni, qandaydir usul bilan tartibga keltirish, xuddi shunday tartibda  $I$  massiv elementlarining o'rmini almashtirish kerak.  $A$  tartibga keltirilgan vaqtida,  $I$  izlanayotgan massiv bo'ladi.

Keltirilgan dasturda xuddi shu ish bajarilgan, bu yerda tartibga keltirishning eng oddiy usuli ishlatalgan:  $A$  massivda eng kichik element bor va bu element birinchisi bilan o'rmini almashtirib boradi. Keyin bu jarayon  $A[2:N]$  kesmaga va hokazo qo'llaniladi.

Agar dasturni murakkablashtirish kerak bo'lsa,  $I$  massivsiz ishni bajarish mumkin, lekin  $A$  massiv elementlari o'zgarmasligi kerak. Bunda navbatdagi minimal element ( $MI$ ) indeksini chop etish va eslab qolish yetarli. Buning uchun, albatta, birinchi shunday elementning indeksini va birinchi maksimal element indeksini oldindan topib qo'yish kerak.

### Dastur

```

Program Tartib_indekslari;
const NN=100;
label 1,2;
var

```

```

j,i,m,mi,ma,k,n :integer;
A : array [1..NN] of real;
begin
  Writeln('N:=');
  readln(n);
  for i:=1 to n do
    begin
      writeln ('a[',i,']=');
      readln (a[i]);
    end;
  mi:=1; ma:=1;
  for k:=1 to n do
    begin
      if a[k]<a[mi] then mi:=k;
      if a[k]<a[ma] then ma:=k;
    end;
  writeln (mi);
  for m:=2 to n do
    begin
      i:=ma;
      for k:=1 to n do
        begin
          if (a[k]<a[mi]) or (a[k]=a[mi]) and (k<=mi) then goto 1;
          if a[k]=a[mi] then
            begin
              i:=k;
              goto 2;
            end;
          if a[k]<a[i] then
            i:=k;
        end;
      1 : end;
      2 : mi:=i;
      writeln (mi);
    end;
  end.

```



213-masala  
Algoritm. «Nollashtirish»

Masalani yechish uchun eng oson yo'li  $B[1:m]$  va  $C[1:n]$  ikkita yordamchi massivlarni kiritish. Keyinchalik  $A$  massiv elementlari

ko'zdan kechirila borib,  $B$  va  $C$  massivlarda nollar uchragan satr va ustunlar belgilab boriladi, ya'ni: if  $a[i,j] = 0$  then  $b[i] = 1 : c[j] = 1$  bajariladi.

Endi,  $A$  massiv ikkinchi marta ko'zdan kechirilayotganda,  $B$  yoki  $C$  massivlarda belgilarga ega bo'lgan, satr va ustunlarda joylashgan elementlar nollar bilan almashtiriladi, ya'ni:

if  $b[i] = 1$  or  $c[j] = 1$  then  $a[i,j] = 0$ .

Faqat bitta  $C[1:n]$  yordamchi massivdan foydalanadigan boshqa yechimni taklif qilish mumkin. Bu holda  $A$  massiv satrlar bo'yicha ko'zdan kechiriladi. Nol elementlari bo'lgan ustunlar, avvalgiday  $C$  massivda belgilanadi, ko'rيلayotgan satrda nol uchragani esa  $Z$  o'zgaruvchida qaraladi, ya'ni:

if  $a[i,j] = 0$  then  $c[j] = 1 : Z = 1$ .

$i$  catr qarab chiqilgach, agar  $Z=1$  bo'lsa, satr nollashtiriladi. Ish so'ngida  $C$  massiv qaraladi va agar  $c[j] = 1$  bo'lsa,  $j$  ustunlar nollashtiriladi.

Bu masalani yechishga xos xatoliklar:

1)  $A$  massiv qaraladi va agar  $a[i,j]$  element nolga teng bo'lsa,  $i$  satr yoki  $j$  ustun yoki unisi ham, bunisi ham nollashtiriladi. Keyingi qarashlarda nollashtirilgan elementlar boshlang'ich nolga teng element, deb qabul qilinadi va ortiqcha nollashtirishlarni hosil qiladi.

2)  $A$  massiv qaraladi va agar  $a[i,j]=0$  bo'lsa, navbatdag'i  $c[k]$  elementga  $j$  kiritiladi. Bundan bitta  $j$  raqam ko'p marta kiritilishi va  $C$  massiv, shartga zid ravishda,  $m*n$  o'chamda talab qilinishi mumkin.

## Dastur

```
Program Nollashtirish;
const NN=20;
      MM:=20;
var
  i,j,m,n :integer;
  Z : boolean;
  A : array [1..MM,1..NN] of real;
  C : array [1..NN] of boolean;
begin
  writeln ('M,N:=');
  readln (m,n);
  for i:=1 to m do
    for j:=1 to n do
```

```

begin
    write ('a[',i,',',j,']:=');
    readln (a[i,j]);
end;
for j:=1 to n do C[j]:=false;
for i:=1 to m do
begin
    z:=false;
    for j:=1 to n do
        if a[i,j]=0 then
            begin
                z:=true;
                c[j]:=true;
            end;
        if z then for j:=1 to m do a[i,j]:=0;
    end;
    for j:=1 to n do
        if c[j] then for i:=1 to m do a[i,j]:=0;
    for i:=1 to m do
begin
    for j:=1 to n do writeln(a[i,j]:4);
    writeln;
end;
end.

```



### 214-masala

*Algoritm. «Ulgurji xarid»*

Ulgurji xarid orttirmalarsiz quyidagicha topiladi:

$$n1 = n \cdot 144; m = n - n1 \cdot 144$$

$$n2 = m \cdot 12; n3 = m - n2 \cdot 12$$

uni faqat ikki yo'l bilan arzonlashtirish mumkin. Ortiqcha bog'lam olib, ortiqcha juftlik olmaslik yoki ortiqcha quti olib, bog'lam ham, juftlik ham olmaslik kerak. Agar  $n3 \cdot 1.05 > 10.25$  bo'sa ortiqcha:

$$n2 = n2 + 1; n3 = 0$$

bog'lam olish kerak.

Agar hosil bo'lgan xaridda (eski yoki o'zgartirilganida)  $n2 \cdot 10.25 + n3 \cdot 1.05 > 114.00$  bo'sa,  $n1 = n1 + 1; n2 = 0; n3 = 0$  ni hosil qilish kerak.

Bu yechim har xil narxlarda (quti 12 bog'lamdan, bog'lam 12 juftdan arzon bo'lgan hollarda) yaroqlidir.

### Test misollar

n	n1	n2	n3
9	0	0	9
10	0	1	0
131	0	11	0
134	1	0	0

### Dastur

```
Program Ulgurji_savdo;
var
    n1,n2,n3,m,n :integer;
begin
    writeln ('N:=');
    readln (n);
    n1:=n div 144;
    m:=n-n1*144;
    n2:=m div 12;
    n3:=m-n2*12;
    if (n3*1.05 )>10.25 then
        begin
            n2:=n2+1;
            n3:=0
        end;
    if (n2*10.25 + n3*1.05 )>114 then
        begin
            n1:=n1+1;
            n2:=0;
            n3:=0
        end;
    writeln (n1,' ',n2,' ',n3 );
end.
```



215-masala  
Algoritm. «To 'ntarilgan sonlar»

Bu masala ( $N^2$  amalda bajarilish uchun) ma'lum bir fikrlashni talab etadi. Tadqiq qilinadigan kesmani uning markazi bilan berish (bu  $N$  ta variantni beradi) va markazdan ikkala tomonga simmetrik elementlarni taqqoslash kerak (bu  $N$  ta guruhdan katta bo'limgan amallarni talab qiladi). Shunday qilib, yechim  $N^2$  amalda (doimiy

ko'paytuvchi aniqligiga) topiladi. Yechimni rasmiylashtirishda kesma markazi o'miga (u elementga ham, elementlar o'rtasiga ham to'g'ri kelishi mumkin) markaz bilan qo'shni bo'lgan ikki element raqamini  $LN < PN$  olish qulay. Bu raqamlar tushunarli tarzda siljiydi:

$(LN, PN) = (1, 2), (1, 3), (2, 3), (2, 4), \dots$

taqqoslanadigan element raqamlari boshda  $L=LN : P=PN$ , deb olinadi va keyin taqqoslanadigan  $A[L]$  va  $A[P]$  elementlar teng bo'lgunicha yoki  $L$  va  $P$  nuqtalardan bittasi  $(L, N)$  chegaradan chiqquncha, har qadamda  $L=L-1 : P=P+1$  bajariladi. Shunda  $(LN, LP)$  markazi maksimal kesma  $M=P-L-1$  uzunlikda bo'ladi.

## Dastur

```
Program To'ntarilgan_sonlar;
const NN=100;
var
  l,i,ln,pn,p,m,max,n:integer;
  z : boolean;
  A : array [1..NN] of real;
begin
  writeln ('n:=');
  readln(n);
  for i:=1 to n do
    begin
      writeln ('a[',i,']:=');
      readln (a[i]);
    end;
  max:=l; z:=true; ln:=1; pn:=2;
  while 2*(n*p+1)+1>max do
    begin
      l:=ln; p:=pn;
      while (l>=1) and (p<=n) and (A[l]=A[p]) do
        begin
          l:=l-1; p:=p+1;
        end;
      m:=p-l-1;
      if (max<m) then max:=m;
      if z then pn:=pn+1 else ln:=ln+1;
      z:=NOT z;
    end;
  writeln (max);
end.
```



## 216-masala

### Algoritm. «Ikki marta monoton»

$i=1, j=n$  deb olinadi,  $a[i,j]$  element (avval bu, keyin navbat-dagisi)  $x$  soni bilan taqqoslanadi.

agar  $a[i,j] = x$  bo'lsa, javob topiladi,

agar  $a[i,j] < x$  bo'lsa,  $i=i+1$  deb olinadi,

agar  $a[i,j] > x$  bo'lsa,  $j=j-1$  deb olinsin.

Oxirgi ikki holda  $i \leq m$  va  $j \geq l$  qolganligini tekshirish kerak. Agar qolgan bo'lsa, taqqoslashga qaytish, aks holda «yo'q» deb chop etish kerak. Har bir qadamda  $i$  oshirilib, yoki  $j$  kamaytirilib boriladi. Demak, qadamlar  $m+n$  dan ko'p bo'lmaydi.

Bu algoritmning to'g'riligiga ishonch hosil qilish qiyin emas. Haqiqatan ham, agar  $a[i,j] < x$  bo'lsa,  $x$  soni  $a[i:m, l:j]$  massivning  $i$  satrida yo'q va bu satrni tashlash mumkin. Agar  $a[i,j] > x$  bo'lsa, xuddi shu sababga ko'ra  $j$  ustunni tashlash mumkin.

### Dastur

```
Program Ikki_marta_monoton;
const MM=20;
      NN=20;
label 1;
var
      i, j, m, n, x :integer;
      A : array [1..MM,1..NN] of real;
begin
      writeln ('m,n:=');
      readln (m,n);
      writeln ('x:=');
      readln (x);
      for i:=1 to m do
            for j:=l to n do
                  begin
                        writeln ('a[',i,' ',j,',]:=');
                        readln (a[i,j]);
                  end;
      i:=l; j:=n;
      while (i<=m) and (j>=l) do
            begin
                  if a[i,j]=x then goto 1;
                  if a[i,j]<x then i:=i+1 else j:=j-1;
            end;
```

```
    end;  
    writeln ('Yo'q');  
    l: writeln (i, ' 'j);  
end.
```



### 217-masala Algoritm «Tetraedrlar»

Yechim ikki qismga bo'linadi:  $M_1$  bilan mos keltirish uchun  $N$  tetraedrning  $N'$  qirrasini va  $M_1$  da qoldiradigan  $N$  tetraedrning burilishlarini tanlash. Birinchisi to'rt usul bilan, ikkinchisi uch usul bilan bajariladi. Faqat,  $N$  tanlanganidan keyin  $N$  ning qolgan qirralarini birontasidan boshlab ma'lum tartibda (masalan, soat yo'nalishiga teskari) yozib olish, yechimning ikkinchi qismini funksiya ko'rinishida rasmiylashtirish kerak (dasturda keltirilgan).

Yechimdan hamma 12 variant bevosita yozib olinadigan javob qoniqarli emas.

### Dastur

*Program Tetraedrlar;*

*var*

```
    m1,m2,m3,m4,n1,n2,n3,n4 :integer;  
    function DA (i,j,k,l:integer) : boolean;  
begin  
    DA:=((m1=i) and (((m2=j) and (m3=k) and (m4=l))  
    or ((m2=l) and (m3=j) and (m4=k))  
    or ((m2=k) and (m3=l) and (m4=j)))  
    writeln ('m1,m2,m3,m4:=');  
    readln (m1,m2,m3,m4);  
    writeln ('n1,n2,n3,n4:=');  
    readln (n1,n2,n3,n4);  
    writeln;  
    if DA (n1,n2,n3,n4) or DA(n2,n1,n4,n3) or DA(n3,n1,n2,n4) or  
        DA(n4,n1,n3,n2) then writeln('Ha')  
        else writeln('Yo'q');  
end.
```



### 218-masala Algoritm. «Kasr davri»

Yechim shartda ko'rsatilmagan qo'shimcha talablarga qattiq bog'liq. « $M$ » natural sonni « $N$ » natural songa bo'lganda bo'linmaning butun qismi va qoldiq hosil bo'ladi:

$$i=M/N : k=M-i*N.$$

Masalani yechish uchun avval  $M/N$  kasrdan  $M$  suratni qoldiqqa almashtirib, butun qismini yo'qotamiz:

$$M = M - M/N * N.$$

Endi, hosil bo'lgan kasrning  $i$  bo'linma va  $M$  qoldiq raqamlarini ketma-ket hosil qilish mumkin:

$$i = 10*M/N : M = 10*M - i*N \text{ va hokazo.}$$

Har bir qoldiq  $N$  dan oshmaydi. Demak, har xil qoldiqlar  $N$  dan katta bo'lmaydi va ular takrorlana boshlaydi. Qoldiq qachon takrorlansa, bo'linmalar ham takrorlana boshlaydi, davr boshlanadi. Takrorlashni ilg'ab olish uchun, eng osoni  $D/I:N$  massivni tashkil qilish va unga, hosil bo'lish tartibiga ko'ra, qoldiqlarni yozish va har bir yangi qoldiqni barcha oldingilari bilan taqqoslab borish kerak.

Bayon etilgan yechim to'g'ri, lekin yaxshi emas. Hisob bo'yicha  $K$  — qoldiqqa  $K$  taqqoslash, hamma qoldiqlarga esa  $N^2/2$  taqqoslash ketadi. Zamonaviy EHM larda  $10^8$  tartibli butun  $M$  va  $N$  ni hosil qilish oson, lekin  $10^{16}$  amallarni bajarish uchun yillar ketadi, shu sabab  $N$  soni uchun  $D$  massivni tashkil qilishga kelishilgan ekan, uni tozalaymiz va navbatdagi  $M$  qoldiqning paydo bo'lishini  $D/M$  elementda belgilaymiz. U paytda  $K$  qoldiq «yangiligi»ni tekshirish bitta taqqoslashni egallaydi.

Lekin bu yechim ham jiddiy kamchilikka ega.  $N$  soni shunday katta bo'lishi mumkinki, bunda  $N$  ta amalni bajarish mumkin bo'ladi-yu, lekin  $N$  ta elementdagи massivni tezkor xotiraga kiritish mumkin bo'lmay qoladi. Qoldiqlar uchun massivni tashkil qilmay, davrn topishga urinib ko'ramiz. Dastlab avvalgi kabi « $M$ » dan « $N$ » ga bo'linadigan qismini ajratamiz. Keyin bo'linmaning  $N$  raqamini o'tkazamiz. Endi, davr boshlangani ma'lum bo'lgach, bitta yagona qoldiqni eslab qolamiz va bo'linmaning raqamlari takrorlana boshlanmagunicha chop etamiz. Bu ishlar taklif etilgan dasturda keltirilgan. Bu dastur oldingsidan qisqa.

## Dastur

```
Program Kasr_davri;
var
  m,n,i,j,k :integer;
begin
  writeln ('m,n:=');
  readln (m,n);
```

```

writeln;
M:=m-(m div n)*n;
k:=1;
while (k<=n) or (j>m) do
begin
  if k=n then j:=m;
  i:= 10 * m div n;
  m:=10 * m-i * n;
  if k>=n then write(i);
  k:=k+1;
end;
writeln;
end.

```



### 219-masala Algoritm. «Arra»

Masalani tushuntirish talab qilinmaydi.

#### Dastur

```

Program Arra;
const mm=100;
var
  i,k,j,m :integer;
  x : array [1..mm] of real;
begin
  writeln ('m:=');
  readln (m);
  for i:=1 to m do readln(x[i]);
  j:=l; k:=l; i:=l;
  while i+l<m do
  begin
    if (x[i]<x[i+1]) and (x[i+1]>x[i+2]) then
    begin
      i:=i+2; j:=j+2;
      if k<j then k:=j
    end
    else
    begin
      i:=i+1; j:=l;
      if i+k>=m then i:=m-1;
    end;
  end;
  writeln;
  writeln (k);
end.

```



## 220-masala

*Algoritm. «Nollar oxiriga»*

Masala ikki siklni kiritish bilan oson yechiladi: birinchisi nolga teng bo'lman elementlarni massiv boshiga yozadi, ikkinchisi esa qoldiqni nollar bilan to'ldiradi. Lekin bu sikllarni birgalikda ham tashkil etish mumkin.

### Dastur

```
Program Nollar_oxiriga;
const nn=100;
var
  i,n,j      : integer;
  x : array [1..nn] of integer;
begin
  write ('n='; n);
  readln (n);
  for i:=1 to n do readln(x[i]);
  j:=0;
  for i:=1 to n do
    if x[i] <>0 then
      begin
        j:=j+1;
        if i<>j then
          begin
            x[j]:=x[I]; x[I]:=0;
          end;
      end;
  for i:=1 to n do writeln(x[i],");
  writeln;
end.
```



## 221-masala

*Algoritm. «Har xil raqamli sonlar»*

Dastur kerakli darajada tushunarli.

### Dastur

```
Program Har_xil_raqamli_sonlar;
var
  i,m,j,k:integer;
begin
```

```

for i:=1 to 9 do
  for j:=0 to 9 do if i<>j then
    for k:=0 to 9 do if (k<>i) and (k<>j) then
      for m:=0 to 9 do
        if (m<>i) and (m<>j) and (m<>k) then
          writeln (((i10+j)*10+k)*10)+m);
end.

```



### 222-masala

*Algoritm. «0,1,2 larning o'rmini almashtirish»*

Bu masalani yechishda hech nimaning o'rmini almashtirish kerak emas. Massivda nechta nollar, birlar va ikkilar borligini sanash va massivni talab bo'yicha to'ldirish kerak.

### Dastur

```

Program O'rinni almashtirish;
const nn=100;
type el=0..2;
var
  i,n : integer;
  x : array [1..nn] of el;
  a : array [el] of 0..nn;
begin
  readln (n);
  writeln ('n:=' ,n);
  for i:=1 to n do readln (x[i]);
  writeln;
  a [0]:=0; a[1]:=0;a[2]:=0;
  for i:=1 to n do a[x[i]]:=a[x[i]]+1;
  for i:=1 to n do
    if i<=a[0] then x[i]:=0
      else if i<=n-a[2] then x[i]:=1 else x[i]:=2;
  for i:=1 to n do writeln (x[i]);
end.

```



### 223-masala

*Algoritm. «Arifmetik amallar»*

Bu masala ham barcha o'rinni almashtirishlarni, faqat takrorlash bilan hosil qilishga bag'ishlangan. Berilgan ifodani quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$w=((((1\ a_2\ 2)\ a_3\ 3)\ a_4\ 4)\ a_5\ 5)\ a_6\ 6$$



bu yerda, A[6] massiv elementlari arifmetik amal belgilarini bildiradi.  $+, -, *, \div$  belgilar 1,2,3,4 qiymatlar bilan ifodalanadi, deb kelishib olamiz. Variantlar ko'p bo'lishi mumkinligi uchun ( $4^5 > 1000$ ), hisoblashlarni tejab tashkil qilishga harakat qilamiz. Buning uchun, w ni hisoblab borib, oraliq natijalarini B[6] massiv elementlari ( $B_1:=1; B_2:=B, a_2 2: \dots :B_6:=B, a_6 6$  va  $w:=B_6$ ) deb olib xotirlaymiz. Keyin variantlarni ko'rib chiqsa borib, avval  $a=1,2,3,4$  ni almashtiramiz. Har bir bunday o'zgarishda faqat  $B_6$  ni hisoblab chiqish kerak bo'ladi. Keyin  $a_5=a_5+1$  ni oshiramiz,  $B_5$  ni qayta hisoblab,  $a_6=1,2,3,4$  va hokazo.

## Dastur

```

Program Arifmetik_amallar;
const m=1; n=9;
label 5;
var
    j, k, y :integer;
    A,B : array [1..n] of integer;
begin
    b[i]:=1; k:=0; a[2]:=0;
    for i:=3 to n do a[i]:=4
    5: for i:=n downto 2 do
        if (a[i]=4) then a[i]:=1
        else
            begin
                A[i]:=A[i]+1;
                Y:=B[i-1];
                case (A[i]) of
                    1:B[i]:=y+i;
                    2:B[i]:=-y-i;
                    3:B[i]:=y*i;
                    4:B[i]:=y div i;
                end;
                for j:=j+1 to n do b[j]:=b[j-1]+j;
                if (b[n]<>M) then goto 5; k:=k+1;
                for j:=2 to n-1 do write ('()); write ('1');
                for j:=2 to n do
                    begin
                        if (j>2) then write ('')
                        case a[j] of

```

```

1: write ('+');
2: write ('-');
3: write ('*');
4: write ('%');
    end;
    writeln (j);
    end;
writeln ('=','m); goto 5;
end;
writeln(k);
end.

```



### 224-masala Algoritm. «Tez daraja»

Odatdagi  $a^k$  ni hisoblashda dastlab qiymati 1 ga teng  $b$  o'zgaruvchi kiritiladi va ko'p marta

$$K:=K-1; b:=b*a$$

operatorlar bajariladi.

$K$  o'zgaruvchi nolga teng bo'lgan paytda (bu  $k$  siklni talab qiladi),  $b$  izlanayotgan  $a^k$  miqdorga teng bo'ladi. Hisoblashni qisqartirishning mohiyati quyidagicha. Dastlab,  $b:=1$ . Agar  $K$  toq bo'lsa, avvalgiday

$$K:=K-1; b:=b*a$$

operatorlar bajariladi.

Agar  $k$  juft bo'lsa, unda,

$$a^k = (a^2)^{k/2}$$

ayniyatdan foydalanib,  $k:=k/2$ ;  $a:=a*a$  almashtirish bajariladi.

Nihoyat, « $K$ » o'zgaruvchi nolga teng bo'lgan paytda, « $b$ » o'zgaruvchi izlangan miqdorga teng bo'ladi. Isbot uchun izlanayotgan  $a^k$  miqdorni  $w$  deb belgilaymiz, unda

$$b:=1; a^k \cdot b=w \quad (*)$$

agar  $K$  toq bo'lsa,

$$K:=K-1; b:=b \cdot a$$

shakl almashtirishni bajarib, (\*) tenglikni buzmaymiz. Agar  $k$  juft bo'lsa:

$$K:=K/2; a:=a \cdot a$$

almashtirish ham uni buzmaydi.  $K$  nolga teng bo'lgan paytda, (\*) tenglik

$$a^0 \cdot b=w, \text{ ya'ni } b=w,$$

tenglikka aylanadi va, demak,  $b$  izlanayotgan miqdorga teng bo'ladi.

## Dastur

```
Program Tez_daraja;
var
    a, b : real;
    k, n : integer;
begin
    readln (a,k);
    write(a, o'^o', k, o'=o');
    b:=1;
    while k>0 do
        begin
            n:=k div 2; if (n+n<k) then b:=b*a;
            k:=n; a:=a*a;
        end;
    writeln (b);
end.
```



*225-masala  
Algoritm. «Har xil sonlar»*

Dastur oson o'qiladi.

Tekshirilayotgan element birinchi takrorlashgacha oldingisi bilan emas, balki keyingisi bilan taqqoslansa, dastur o'qilishi yana ham tezlashadi. Bundan takrorlanishlar soni  $m * m$  dan  $m * k$  gacha tushadi. Bu yerda, massivda  $m$  — hamma sonlar,  $k$  — esa har xil sonlar miqdorini bildiradi.

## Dastur

```
Program Har_xil_sonlar;
const n=100;
var
    i, j, m, S : integer;
    b : boolean;
    A : array [1..n] of integer;
begin
    readln (m);
    writeln ('m:= ',m);
    for i:=1 to n do
        begin
            readln (a[i]);
            writeln ('a[',i, ']:=',a[i]);
        end;
end;
```

```

S:=0;
for i:=1 to m do
begin
  b:=false;
  j:=i+1;
  while (j<=m) and not b do
    begin
      b:=b or (a[I]=a[j]);
      j:=j+1;
    end;
  if not b then S:=S+1;
end;
writeln ('S=',S);
end.

```



### 226-masala Algoritm. «Minimumlarning maksimumi»

Keltirilgan dastur, birinchi satr va satrning har bir elementi alohida ko'zdan kechirishni talab qilinmaydigan qilib tuzilgan. Bundan tashqari, satrni ishlab chiqish navbatdagi satr izlanayotgan elementga ega emasligi ma'lum bo'lishi bilan to'xtatiladi.

### Dastur

```

Program Minimumlar_maksimumi;
const mm=10; nn=20;
label 1;
var
  i, j, n, m, k :integer;
  min, max:integer;
  x : array [1..mm,1..nn] of integer;
begin
  readln (m,n);
  writeln ('m:= ',m, 'n:= ',n);
  for i:=1 to m do
    for j:=1 to n do
      begin
        writeln ('x[',i,',',j,']=');
        readln (x[i,j]);
      end;
end;

```

```

for i:=1 to m do
begin
  for j:=1 to n do
    begin
      if (i>1) and (x[i,j])<=max) then goto l;
      if (j=1) or (x[i,j])<=min) then min:= x[i,j];
    end;
    max:=min; k:=i;
l : end;
  writeln ('k',k);
end.

```



### 227-masala Algoritm. «Spiral»

Spiral tarmog'i to'rtta to'g'ri chiziqli qismga bo'linadi: chapdan o'ngga gorizontal, yuqoridan pastga vertikal, o'ngdan chapga gorizontal va quyidan yuqoriga vertikal. Dasturda ularning har biri alohida to'ldiriladi va bir qismning ikkinchisiga «sirpanib o'tishi» ishlataladi. Uning tugashi oxirgi  $k=n^2$  sonining kiritilishi bilan tekshiriladi.

### Dastur

```

Program Spiral;
const nn=19;
var
  i, n, j, k : integer;
  function MOV :boolean;
  A : array [1..nn, 1..nn] of integer;
begin
  MOV:=false;
  if k<=n*n then
    begin
      a[i,j]:=k; k:=k+1;
      MOV:=true
    end;
  end;
  begin
    writeln ('n:=' ,n);
    readln (n);
    k:=1; i:=1; j:=1;

```

```

repeat
    while MOV and ( $i+j < n+1$ ) do  $j:=j+1$ ;  $k:=k-1$ ;
    while MOV and ( $i < j$ ) do  $i:=i+1$ ;  $k:=k-1$ ;
    while MOV and ( $i+j < n+1$ ) do  $j:=j-1$ ;  $k:=k-1$ ;
    while MOV and ( $i > j+1$ ) do  $i:=i-1$ ;  $k:=k-1$ ;
until  $k:=n*n$ ;
for  $i:=1$  to  $n$  do
begin
    for  $j:=1$  to  $n$  do writeln (  $a[I,j]:4$  );
    writeln;
end;
end.

```



### 228-masala

*Algoritm. «Ichki to'plam bo'yicha yig'indi»*

Bu masala hamma ichki to'plamlarni sanab o'tishga doir. Tashqaridan qaraganda u variantlarni ko'rib chiqish masalasiga o'xshaydi, lekin unga qaraganda ancha sodda,  $b$  — natural son va  $b_i$  — uning ikkilik xonalari ( $b=0$  yoki  $b=1$ ) bo'lsin:

$$b=b_1+2b_2+\dots+2^{n-1}b_n.$$

$b=1, 2, \dots, 2^{n-1}$  qiymatlar ketma-ketligi bo'ylab « $b$ » o'tganda, birga teng  $b_i$  elementlarning  $i$  indekslar to'plami  $\{1, 2, \dots, n\}$  to'plamning hamma (bo'sh bo'lmagan) ichki to'plamlaridan o'tadi. Shuning uchun dasturda  $P$  massiv kiritilgan. Uning elementlari bilan « $b$ » sonining ikkilik razryadlari kabi ish olib boriladi.

### Dastur

```

Program Ichki_to'plam_summasi;
const nn=100;
label 1;
var
    m,n,i,s :integer;
    a : array [1..nn] of integer;
    b : array [1..nn] of boolean;
begin
    writeln ('n,m=');
    readln (n,m);
    for i:=1 to n do
begin

```

```

        writeln ('a[',i,']=');
        readln (a[i]);
        b[i]:=false;
    end;
s:=0;
repeat
    for i:=1 to n do if (b[i]) then
        begin
            b[i]:=false; s:=s-a[i]
        end
        else
        goto 1;
    1: b[i]:=true; s:=s+a[I];
until s:=m;
for i:=1 to n do
    if (b[i]) then write(I:4);
    writeln;
end.

```



### 229-masala

*Algoritm. «Labirint»*

Yaxshi ma'lum bo'lgan bu masala, bu yerda biroz o'zgartirilgan. Yechim ikki qismga bo'linadi: chiqish yo'lini izlash va «teskarı yo'l»ni (yo'lovchining chiqishdan boshlab, boshlang'ich holati-gacha) chop etishdan iborat.

Birinchi qismning oddiy yechimi quyidagicha bayon etiladi: Yo'lovchining boshlang'ich nuqtasi bo'lgan  $a[i,j]$  katakka 2 soni yoziladi va  $k=2$ , deb olinadi.  $A$  labirintning hamma kataklari ko'zdan kechirib chiqiladi. Yozilgan har bir katak uchun to'rtta qo'shnisi ko'zdan kechiriladi. Agar unga qo'shni bo'lgan to'rtta katakdan, hech bo'limganda, bittasida  $k$  (hozir 2 ga teng) yozilgan bo'lsa, ko'rيلayotgan  $a$  katakka  $k+1$  soni yoziladi. Endi  $k=k+1$  oshiriladi va  $A$  ning hamma kataklari qaytadan ko'zdan kechiriladi. Agar son chegara katakka yozilgan bo'lsa, (yo'l topilgan) yoki  $A$  ning hamma kataklarini ko'zdan kechirishda, u bironta ham kattakka yozilmagan bo'lsa (yo'l yo'q), jarayon tugaydi. Qisqa yo'lda nechta katak bo'lsa, massivning hammasini qarab chiqish ham shuncha bo'ladi.

Oldingi algoritmni yaxshilash oson. Avvalgidek, har qadamda  $A$  labirintning hamma kataklari ko'zdan kechiriladi. Agar katakda,

nol yozilgan bo'lsa-yu, qandaydir unga qo'shni katakda  $K \geq 2$  son bo'lsa,  $a$  katakka  $k+1$  soni yoziladi. Bu masala birinchi qismining yechimi ekanligi aniq. Lekin, agar omad chopsa, bu yerda yechim tez topiladi.

Boshlang'ich katakdan boshlab (boshda 2 yozilgan katak), birinchi bo'sh (ya'ni, 0 lik katak) qo'shnini izlovchi dastur samarali bo'ladi. Qo'shni bo'sh katakka 3 soni yoziladi va 4 sonini yozish uchun uning bo'sh qo'shnisi izlanadi va hokazo. Chegaraga chiqiganda (yo'l topildi) yoki bo'sh qo'shnilar bo'lmaganda berk katakda jarayon to'xtatiladi. Agar berk katak boshlang'ich katakda paydo bo'lsa, chiqish yo'q. Agar berk katak boshqa bo'lib, unga  $k > 2$  soni yozilgan bo'lsa, unga bir sonini yozish (uni yopish) va qo'shni,  $k-1$  sonli katakka o'tish kerak. Bunday katak bor va u yagona. Bu yechimda variantlarni ko'rib chiqishning umumiy chizmasini topish oson. Labirint to'g'risidagi masala yechimini rekursiv yozib, sezilarli qisqartirish mumkin. Bu ish taklif etilgan dasturda bajarilgan. Lekin bunday dasturni o'qishdan ko'ra yozish oson.

Keltirilgan algoritmlar (birinchisidan boshqa) eng qisqa yo'lni bermasligi ham mumkin. Labirintda qisqa yo'lni tejamli izlash uchun ko'zdan kechirilishi kerak bo'lgan katak ( $x, y$ ) koordinatalari ro'y-xati uchun maxsus  $X$  va  $Y$  massivlarni tashkil etish mumkin. Bunday usul **kengligi (eni) bo'yicha izlash** deyiladi.

Avval  $X, Y$  ga yo'lovchining boshlang'ich katak koordinatalari kiritiladi. Har qadamda  $X$  va  $Y$  massivlardan, ko'zdan kechirish uchun navbatdagi katak («b» raqamli) koordinatalari olinadi, uning bo'sh qo'shnilar esa ixtiyoriy tartibda  $X, Y$  ro'yxat davomida «e» raqam bilan yozib qo'yiladi. Shunday qilib, ro'yxat boshidan ishlab chiqiladi va oxiridan uzaytiriladi.

Izlash labirint chegarasida bo'sh katakka yotish bilan yoki  $X, Y$  ro'yxatni tugatish bilan (chiqish bo'lmasa) tamomlanadi.

Teskari yo'lni izlash va chop etish rekursivmas dasturlarda bir xil, rekursivlarda esa avtomatik bajariladi.

## Dastur

```
Program Labirint;
const mm=15; nn=15;
var
    i,n,j,m :integer;
    chik : boolean;
    a : array [1..mm,1..nn] of byte;
```

```

procedure L (i,j:integer);
begin
  if not chik then
    if a[i,j]=0 then
      begin
        if i=1 or i=m or j=1 or j=n then chik:=true;
        a[i,j]:=1; L(i,j-1); L(i, j+1); L(i-1,j); L(i+1,j);
        if chik then writeln (i,' ',j);
      end;
    end;
  begin
    writeln ('m,n=');
    readln (m, n);
    for i:=1 to m do
      for j:=1 to n do
        begin
          writeln ('a[',i,',',j,']=');
          readln (a[i,j]);
        end;
    writeln;
    writeln ('i,j=');
    readln (i, j)
    writeln;
    chik:=false;
    if not chik then writeln ('chiqish yo'q');
  end.
end.

```



### 230-masala

*Algoritm. «Mukammal sonlar»*

Natural  $i$  son mukammal bo'lishini hal qilish uchun hamma  $j = 1, 2, \dots, i-1$  sonlarni ko'rib chiqish, ularning qaysi biri  $i$  sonining bo'lувchisi bo'lishini aniqlash va bu bo'lувchilarni qo'shish kerak.

Bo'lувchiga «nomzodlar»ni  $i-1$  gacha emas, balki  $\sqrt{i}$  gacha ko'rib chiqib, dastur bajarilishini tezlashtirish mumkin. Buning uchun  $k = i / j$  ( $k \geq j$ ) ni topish va agar  $i$  sonining bo'lувchisi  $j$  bo'lsa, faqat  $j$  ni emas, balki  $k$  ni ham hisobga olish kerak. Faqat biron ta'min bo'lувchi ikki marta olinishiga ( $j=k$  da) yo'l qo'ymaslik kerak. Bu algoritm taklif qilingan dasturda keltirilgan.

## Dastur

```
Program Mukammal_sonlar;
var
  m, i, j, k,s :integer;
begin
  write ('m:=');
  readln (m);
  writeln ('program get m=', m);
  for i:=2 to m do
    begin
      S:=1; j:=1;
      repeat
        J:=J+1;
        K:=i*div j;
        if (i=k*j) and (j<=k) then
          begin
            s:=s+j if j>k then s:=s+k;
          end;
        until j>=k
        if s=i then writeln (i);
      end;
    end.
```



### 231-masala Algoritm. «Hosil qilinmaydigan son»

Bu masala birinchi qarashdagidan ko'ra qiziqroq, chunki u  $n \times n$  (hatto  $n^2 \log n$ ) amalda yechiladi. Mumkin bo'lgan yechim quyidagicha  $S=1$  deb olinadi,  $P$  massivda qandaydir  $P(j) \leq S$  element borligi aniqlanadi. Agar bunday element bo'lmasa, « $S$ » yechim bo'ladi. Agar bunday element topilsa, uning qiymati  $S$  ga qo'shiladi, ya'ni  $S=S+P[j]$ . Massivdan  $P(j)$  olib tashlanadi va yana qolgan elementlar ichidan « $S$ » ning yangi qiymatidan katta element borligi izlanadi va hokazo. Induksiya usuli bo'yicha xuddi shunday tarzda birinchi tashkil etilmaydigan sonni topishni isbotlash mumkin. Haqiqatda navbatdagi  $i=1, 2, \dots$ , qadamda  $P$  massiv elementlarini  $P(i)$  dan boshlab ko'rib chiqish, topilgan  $P(j)$  elementni esa  $P(i)$  elementga almashtirish kerak.

Harakatlar (amallar) sonini tejash maqsadida (massivda sonlar eng yomon joylashgan holda) oldindan  $P$  massivning faqat navbatdagi elementini taqqoslash kerak bo'ladi. Bayon etilgan algoritm taklif qilingan dasturda amalga oshirilgan.

## Dastur

```
Program Hosil_qilinmaydigan_son;
const NN=10;
label 1,2;
var
  n,i,j,s : integer;
  P : array [1..NN] of integer;
begin
  writeln ('n:=');
  readln (n);
  for i:=1 to n do readln (P[i]);
  writeln;
  S:=1;
  for i:=1 to n do
    begin
      for j:=i to n do if P[j]<=s then goto PI;
      goto 2;
      1: s:=s+P[j]; P[j]:=P[i];
      end;
  2 : writeln(s);
end.
```



232-masala  
Algoritm. «Do 'mbira»

Quyidagi oddiy yechim taklif etiladi.  $K$  — «kichiklikka nomzod» vektor raqami,  $p$  — navbatdagи vektor raqami bo'lsin. Boshida  $k=1$  va  $p=2$ , deb olinadi.

Agar qandaydir bir lahzada quyidagilar aniqlansa:

1)  $X_k \leq X_p$  bo'lsa,  $p$  birga oshiriladi;

2)  $X_k > X_p$  bo'lsa,  $k$   $p$  ga almashtiriladi va  $p$  birga oshiriladi.

Agar shundan keyin  $p \leq 12$  bo'lsa,  $X_k$  va  $X_p$  vektorlar yangi justini taqqoslashga o'tish kerak. Agar  $p > 12$  bo'lsa, sonlar yechimi bo'ladi. Bu algoritm taklif etilgan dasturda amalga oshirilgan.

Boshqa xil yechim ham bor. U ba'zi bir hollarda tezroq hosil qilinishi mumkin. Unga ko'ra «kichiklikka nomzod» vektorlar ro'yxati uchun qo'shimcha  $L[1:12]$  massiv tashkil qilinadi (aniqrog'i «nomzod»lar boshlanadigan raqamlar ro'yxati uchun). Boshda bu 1 dan 12 gacha raqamlar bo'ladi. Shundan so'ng ularning ichidan birinchi elementi — kichik bo'lganlari qoldiriladi, ulardan ikkinchi

elementi — kichik bo'lganlari va hokazo biron ta ham nomzod qolmaguncha yoki minimal vektorlarga nomzod hamma 12 ta element qarab chiqilmagunicha davom ettiriladi.

## Dastur

```
Program Do'mbira;
const N=12;
label 1;
var
    i, j, p, l, k :integer;
    A : array [1..n] of real;
begin
    for i:=1 to n do
        begin
            writeln ('A[',i,']=');
            readln (A[i]);
        end;
    k:=1;
    for P:=2 to n do
        begin
            for i:=0 to n-1 do
                begin
                    j:=k+i; if j>n then j:=j-n;
                    l:=P+j; if l>n then l:=l-n;
                    if A[l]<A[j] then k:=p;
                    if A[l]<>A[j] then goto 1;
                end;
            1: end;
            writeln;
            writeln (k);
        end.
end.
```



### 233-masala

Algoritm. «Kublar yig'indisi»

